

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**FILOLOGIYA FAKULTETI**  
**FILOLOGIYA VA TILLARNI O`QITISH (O`ZBEK TILI) TA'LIM**  
**YO`NALISHI**

**BITIRUVCHI KURS TALABASI**  
**IBODULLAYEVA MAHLIYOning**  
**“SO’ROQ GAPLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI”**  
**mavzusidagi**

*5 120 100 –Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr  
akadem darajasini olish uchun yozgan*

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**  
(2016-2017- o`quv yili)

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi  
Axmedov A.

**Buxoro – 2017**

Reja:

Kirish. Ishning umumiyl tavsifi

I bob. Gap – sintaksisning asosiy birligi

1.1. Gapning lison-nutq farqlanishidagi tahlili

1.2. So`roq gaplarning grammatic xususiyatlari

II bob. Tilning amaliy faoliyatiga pragmatik yondashuv

2.1. Pragmatik lingvistikaning shakllanishi

2.2. Lingvistik pragmatika va uning tadqiq manbayi

2.3. Muloqot va madaniy kompetensiya

III bob. So`roq gaplar muloqot birligi sifatida

3.1. So`roq gaplarning pragmatik vaziyat bilan bog`liq xususiyatlari

3.2. So`roq gaplar va kommunikativ intensiya

Umumiyl xulosa

## ISHUNING UMUMIY TAVSIFI

**Mavzuning dolzarblii.** Mustaqillik milliy qadriyatlar qatorida ona tiliga yangicha munosabatni shakllantirdi. Milliy tilimizning ijtimoiy mavqeyini tikladi, ona tilimizning davlat tili sifatidagi maqomi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi nufuzini yuksaltirdi. O`zbek tilshunosligi fanining yangi taraqqiyot bosqichiga ko`tarilishi uchun keng yo`l ochdi. Ayniqsa, til hodisalarining milliy tabiat, o`ziga xos xususiyatlarini o`rganishga yo`lboshchilik qildi. Mamlakat va millat taraqqiyotida ona tilining milliy ong va mafkurani shakllantirishdagi o`rni va vazifalariga davlat siyosatining ustuvor yo`nalaishlari darajasida alohida e`tibor qaratildi. Shunga muvofiq, tilshunoslik fanida o`zbek tilining ilmiy va amaliy tadqiqi ham jadal rivojlanmoqda. Fanimizda bir necha yangi yo`nalishlar shakllandи. O`zbek tilining pragmatik tadqiqi Mustaqillik davrida pragmatik lingvistikaning rivojlanishiga sabab bo`ldi. Tilni tizim sifatida o`rganish natijalari ommalashib, ona tili ta`limi mazmunini yangiladi. Lisoniy birliklar sistemaviy, struktural, semantik va substansial tadqiq usullari asosida o`rganildi. Natijada til birliklarining lisoniy imkoniyatlarini muayyan nutqiy faoliyat jarayonida tahlil qilish ehtiyoji paydo bo`ldi. O`zbek tilshunosligida til birliklariga xos lisoniy imkoniyatlarni nutqiy faoliyat jarayonida tahlil qilishni maqsad qilib qo`ygan pragmatik tilshunoslik yuzaga keldi. Bu ilmiy yo`nalishda T.A.Bushuy, Sh.Iskandarova, M.Kamolova, S.Mo`minov, A.Nurmonov, S.Raximov, B.Rahmatullayeva, Sh.Safarov, M.Hakimov kabi tilshunoslarning sohaga oid izlanishlari nazariy asoslarning shakllanib borayotganligidan darak beradi. Endigina rivojlanayotgan bu yo`nalishda tadqiqiqni kutayotgan muammolar anchagina. Ushbu bitiruv-malakaviy ishda so`roq gaplarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish masalasi shunchaki qo`yilgan emas. Chunki o`zbek pragmatik tilshunosligida gap va uning turlarini sintagmatik tahlil yo`nalishidan pragmatik tahlilga o`tish davri yetilgan. Bu ilmiy yo`nalishdagi tadqiq muammolari aniq yechimlarini kutmoqda. Pragmatik lingvistikaning tilshunoslik turkum fanlari orasidagi o`rni, lingvistik pragmatikaning amaliy va nazariy shakllanishi, pragmatik birliklar va ularning tahlil kabi muammolar nafaqat o`zbek tilshunosligida, balki jahon tilshunoslida

ham dolzarb masalalalardan sanaladi. Tadqiq mavzusining dolzarbligi mazkur muammolarga aloqadorligi bilan belgilanadi.

**Mavzuning o`rganilish darajasi.** O`zbek tilshunosligida o`tgan asrning oxirida struktural, semantik va substansial yo`nalishlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar tilning ontologik mohiyatini ochib berdi. Ularning yutuqlari o`zbek tilining navbatdagi tadqiq yo`nalishini belgilab berdi. Hozirgi davrda jahon tilshunosligi, jumladan, o`zbek tilshunosligida tilning axborot texnologiyalari va kommunikativ vositalarning to`xtovsiz rivojlanish asridagi o`rni va vazifasi bilan bog`liq tadqiqi ilmiy tahlil yo`nalishlarini o`zgartirdi. Til tizimi va uning qurilish birliklarida mavjud lisoniy imkoniyatlar nutq voqeligidagi muayyanlashadi. Shunday ekan, XXI asr tilshunosligida til, shaxs va jamiyat tushunchalari ilmiy qimmati oshdi. Bu tushunchalarni bog`lab turgan inson hayotidagi muhim siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, madaniy, ma`naviy, ruhiy, axloqiy munosabatlar fanda alohida-alohida ilmiy tahlil usullari va mezonlarini belgilab berdi. Oqibatda tilshunoslikda tilning mazkur munosabatlar zanjirida faollashadigan amaliy vazifalari tadqiqa e`tibor kuchaydi. Jahon tilshunosligida ilgarilab ketgan sotsial lingvistika tarmoqlari o`zbek tilshunosligiga ham ta`sirini o`tkazdi. Chunonchi, P.Grays, T.A.Deyk, Dj.R.Syorl, D.Frank kabi olimlarning roman-german tilshunosligidagi va A.A.Akishina, N.D.Arutyunova, V.V.Bogdanov, A.M.Bushuy, M.S.Kagan, L.P.Krisin, A.A.Leontyev, N.I.Formanovskaya, L.V.Sherba kabi tilshunoslarning rus tilshunosligidagi tadqiqotlari pragmatik tahlil namunalari hisoblanadi. Bu o`zbek tilshunosligida pragmatik lingvistikating ”ildiz otishi”ga yordam berdi. Zamonaviy tilshunoslikda pragmatika nutqqa lisoniy faoliyat –fikr almashtirish va o`zgalarga ta`sir ko`rsatish, bu faoliyatni yaratish va bunyod etishning asosiy turlaridan biri sifatida yondashadi. Shuning uchun nutqning ta`sirchanligi, tezkorligi, mantiqiyligi va samaradorligini lisoniy faoliyat doirasida tadqiq etish markaziy o`rinni egallaydi. O`zbek tilshunosligida T.A.Bushuy, Sh.Iskandarova, M.Kamolova, S.Mo`minov, A.Nurmonov, S.Raximov, Sh.Safarov, N.Turniyozov, M.Hakimov kabi tilshunos olimlar o`zbek tilining pragmatik talqiniga o`z hissalarini qo`shishgan. Ularning ishlarida pragmatik

lingvistika va uning tadqiq obyekti, pragmatik birliklar va asosiy tushunchalar, pragmalingvistik tahlil usullari va tamoyillari o`rganilgan [22;41;9;43;13;15;21;32; 29;33;30;34;35;37;44]. Shu bilan birga, nutqiy muloqot jarayoni stilistika, sotsiolinguistika, psixolinguistika, nutq odobi va madaniyati, diskursiv lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

**Ishning maqsadi va vazifalari.** Mazkur bitiruv-malakaviy ishning bosh maqsadi o`zbek tilidagi so`roq gaplarning pragmatik xususiyatlarini o`rganishdan iborat. Ushbu maqsadga muvofiq, quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko`zda utilgan:

- o`zbek tili sintaksisida gapning substansial tadqiqi masalasini yoritish;
- gapning lison-nutq farqlanishidagi tahlili natijalarin tavsiflash;
- ifoda maqsadiga ko`ra gap turlarining ajratilishi haqida ma'lumot berish;
- so`roq gaplarning grammatick xususiyatlarini izohlash;
- o`zbek tilshunosligida pragmatik yondashuvning shakllanishi, pragmatik lingvistikaning alohida fan tarmog`i sifatida ajratilishi masalasini yoritish;
- so`roq gaplarning muloqot birligi vazifasida qo`llanilishini kuzatish va dalillar yig`ish;
- so`roq gaplarning pragmatik vaziyat bilan bog`liq xususiyatlarini tahlil qilish;
- so`roq gaplarga kommunikativ intensianing ta'sirini asoslash.

**Ishning tadqiq manbayi.** Bitiruv-malakaviy ishning tadqiq manbayi nutqiy muloqotda voqelashgan so`roq gaplardir. O`zbek tilida so`roq gaplarning sintaktik xususiyatlarini o`rganishga bag`ishlangan hamda gap turlarining struktural va substansial tahlil natijalari qamrab olingan ilmiy manbalar, o`quv-usuliy adabiyotlar, shuningdek, til birliklarining pragmatik talqiniga doir ilmiy tadqiqotlar ishning nazariy asosini tashkil etadi.

**Ishning metodologik asosi va tadqiq usullari.** O`zbekiston Respublikasi Mustaqilligi va milliy istiqlol g`oyalari singdirilgan rahbariy adabiyotlar, davlatimizning ilm-fan va texnikani rivojlantirish, ta`lim va tarbiya tizimini

takomillashtirishga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlari hamda bilishning umumiylilik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik, sabab-oqibat dialektik kategoriyalari haqidagi falsafiy ta'limoti ishning metodologik asosini tashkil etadi. So`roq gaplarning lisoniy xususiyatlari tavsifida srtruktural, substansial tahlil usullari va natijalaridan foydalanildi. Nutqiy muloqotda yuzaga kelgan yoki dialogik nutqda voqelashgan so`roq gaplar pragmalingvistik tahlil usuli va mezonlari asosida tahlil qilindi.

**Ishning nazariy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv-malakaviy ishda sintaktik birliklardan biri – so`roq gaplarning pragmatik tahlili natijalari o`zbek tilshunosligida pragmatik birliklar va ularning vazifalarini, lisoniy birliklarning muloqot tizimini hosil qilishini o`rganish muammosi yechimlarini topishga yordam beradi. Bu ishning nazariy ahamiyatini belgilaydi. Ishdagil tahlil natijalari o`zbek tilshunosligida pragmatik lingvistikaning tadqiq muammolari bilan bevosita aloqador sohalarni o`rganishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “Hozirgi o`zbek adabiy tili” fanida gapning nutqiy voqelanish imkoniyatlari, “Sotsiolinguistik”da nutq faoliyatida namoyon bo`ladigan ijtimoiy belgilar shaxsning lisoniy birliklardan foydalanish darajasiga bog`liqligi, “Uslubshunoslik”da so`roq gaplarning uslubiy imkoniyatlari va jonli nutqni shakllantirishi masalalarini o`rganishga yordam beradi. Bundan tashqari, oliy ta’limda “O`zbek tili pragmatik lingvistikasi”, “Tilshunoslik nazariyasi”, “Nazariy tilshunoslik masalalari” o`quv kurslarini o`qitish jarayonida va qo`llanmalar yaratishda mazkur ishdagi nazariy va faktik material qo`shimcha manba sifatida xizmat qiladi.

**Ishning jamoatchilik e’tiboridan o’tishi.** Bitiruv-malakaviy ishning mavzusi Buxoro davlat universiteti o`zbek tili va adabiyoti kafedrasida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

**Ishning tuzilishi.** Bitiruv-malakaviy ish ishning umumiy tavsifi, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan ilmiy adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Har bir bobda va ishning yakunida xulosalar o`z ifodasini topgan.

## I bob. Gap – sintaksisning asosiy birligi

O`zbekiston Respublikasining Mustaqillikka erishganiga yigirma besh to`ldi. Chorak asrlik vaqt mamlakatimiz tarixida o`chmas iz qoldirdi. O`zbek xalqining siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy, madaniy hayotini tubdan o`zgartirgan Mustaqillik davrida o`zbek tilshunosligi ham milliy istiqlol g`oyalaridan ilhom olib rivojlandi. Millatimiz ma`naviy qadriyatlaridan biri – ona tilimiz mavqeyi tiklanlanib, davlat tili maqomiga ega bo`ldi. Uning nufuzini oshirish, qo`llanish doirasini kengaytirishga qaratilgan targ`ibot va tashviqot ishlari qatorida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish kuchaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asarini o`qigan har bir kishi buning sababini chuqur anglaydi. Zero, bu sabab millat fidoyisi Islom Karimovning quyidagi purhikmat fikrlarida ifodalangan: “O`zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o`rtasidagi ruhiy-ma`naviy bog`liqlik til orqali namoyon bo`ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”. [3,83]

Demak, hozirgi kunda ona tili, o`zga tillarga hurmat muammosi bilan birga davlat tili madaniyatini yuksaltirish asosiy vazifalardan biri bo`lsa, iste`molga kirayotgan davlat tili madaniyati tushunchasi esa axloqiy, ma`naviy kategoriyadan biri sifatida namoyon bo`lmoqda. Bu esa tilning milliy tabiatni yaqqol aks etadigan grammatik qonuniyatlarni ana shu metodologik asoslarga tayangan holda chuqur tahlil qilish, muammoga til va tafakkur, til va ma`naviyat, til va madaniyat mushtarakligidan kelib chiqqan holda munosabatda bo`lishni taqozo qiladi.

Har qanday millatning o`zligi uning tilida yaqqol aks etadi va uning ontologik belgisi sifatida mavjud bo`ladi. Ayniqsa, bu tilning grammatik qurilishida yorqin ifodasini topadi. Gap qurilishining milliy tafakkur tarziga mos bo`lishi, gap qurilishi qoliplarining milliy o`ziga xos xususiyatlari bu hodisalarining har birini milliy ruhiyat va ong, tafakkur tarzi tushunchasidan kelib chiqqan holda, u bilan aloqadorlikda o`rganishni talab etadi. Bu esa har bir grammatik hodisani qanday metodologik asos va tadqiq usullari asosida tekshirish zarurligini aniqlash muammosi bilan bog`liqdir.

Ko`rinadiki, milliy tilning grammatik tizimi tadqiqida milliy ma`naviyat va milliy til dialektikasi mushtarakligida ma`naviy omillarga tayanib ish ko`rish masalaning bir jihatni bo`lsa, lisoniy hodisani qaysi yo`sinda va qaysi tadqiq usullari asosida, tilshunoslikning qaysi oqim va yo`nalishlari tamoyillari vositasida tekshirish ikkinchi jihatini tashkil etadi. Shunday ekan, ilmiy tadqiqot tadqiq metodologiyasi va usullarining to`g`ri tanlanishi hamda uqilishi tadqiq manbayining tekshirilayotgan qirrasi haqida obyektiv xulosalar berish imkonini beradi. Chunki bir metod asosida berilgan xulosalarni boshqa metod asosida baholash va rad etish mumkin emasligi ma'lum. Ishimizda gaplarning lisoniy va nutqiy xususiyatlarini qiyoslash vazifasi qo`yilgan ekan, o`zbek tili grammatikasining milliylikni aks ettiruvchi jihatlarini tahlil qilishda substansial tadqiq usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O`zbek tilshunosligida tilimizning mohiyati, uning xilma-xil muammolarini yoritishga bag`ishlangan ko`plab tadqiqotlar yaratilgan. Bugun o`zbek tilshunosligi turkiy tilshunosliklar orasida peshqadamlardan ekanligi ham mubolag`a emas [26,6]. Tilshunos N.Mahmudov ona tilimiz millat sha`ni, or-nomusi kabi qo`riqlanadigan va ardoqlanadigan qadriyat ekanligi haqida kuyinib yozar ekan: “O`zbek tilining mustaqillik sharoitida rivoji bilan bog`liq jarayonlarni xolis ilmiy-nazariy asoslarda tadqiq etishni yanada muntazamlashtirish maqsadga muvofiqdir”, -deb uqtiradi [27,9]. Bunda til, shaxs, jamiyat uchligi va bu uchlik a`zolari orasidagi munosabatlar hamda ular bilan bog`liq qonuniyatlarni ochishga qaratilgan sa'y-harakatlar yetakchilik qilmog`i lozim. Tabiiyki til, shaxs, jamiyat uchligi va uning tarkibidagi a`zolar orasidagi munosabatlar tadqiqi fanimizning keyingi taraqqiyotini belgilovchi ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Ta'kidlash kerakki, o`zbek tilshunosligida til, shaxs, jamiyat uchligida asosiyligi o`rinni egallaydigan til tushunchasi hodisasi turli ilmiy yondashuvlar asosida o`rganilgan va buning natijasi o`laroq o`zbek formal grammatikasi, o`zbek substansial tilshunosligi, mazmuniy tilshunoslik kabi yo`nalishlar shakllangan. Bu ilmiy yo`nalishlarning har birida til o`ziga xos tadqiq usullari va metodologiyasi asosida talqin etilgan. Shunga qaramay, bugun tilning shaxs va jamiyatga xizmat

qilishini tildan foydalanuvchining turli nutqiy ehtiyojlarini qondirish vositasi, shuningdek, lisoniy mavjud imkoniyatlar manbayi sifatida individual hamda ijtimoiy-kommunikativ vazifa bajarishi bilan bog`liq masalalar o`z yechimini topmagan. Mazkur masalalarni yechish va ilmiy asoslash tilshunoslikda tadqiq obyektiga yangicha yondashuvlarning shakllanishiga sabab bo`ladi.

O`zbek tilshunosligida XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida formal yo`nalish global ravishda sanoyi ishlab chiqarish ehtiyojlar bilan shakllangan va o`z oldiga, asosan, ommaviy savodxonlikni ta`minlash, zamonaviy til me`yorlarini ommalashtirish kabi o`z davri uchun o`ta zarur masalalar yechimini maqsad qilib qo`ygan edi [31,35]. Binobarin, formal yo`nalishda tilga sanab o`tilgan masalalar kesishgan nuqtadagi tadqiq manbayi sifatida qaraladi. Tilshunoslik nazariyasi ham, ona tili ta`limi ham mana shunga xizmat qiladi. Formal tishunoslikning metodologik asosi empirik tavsif usuli bo`lib, unda lison-nutq dixotomiyasi oddiy mantiqdagi mavhumlik-muayyanlik sifatida tushuniladi [31,35].

O`zbek tilshunosligida formal tahlil tamoyillarining keng, izchil ommalashuvida professor A.G`ulomovning xizmatlari beqiyosdir. Tilni tizim sifatida tadqiq etish asosida shakllangan struktural, semantik hamda substansial tahlil yo`nalishlari o`zbek formal tilshunosligi yaratgan mustahkam lingvistik asoslar poydevoriga tayanadi.

XX asrning 90-yillarida o`zbek tilshunosligi fanida formal-funksional (keyinchalik “substansial” deb atalgan) yo`nalish shakllandi va bu haqdagi xulosalar tilshunos M.Qurbanovning “O`zbek tilshunosligida formal-funksional yo`nalish va sodda gap qurilishining talqini” nomli tadqiqotida bayon etilgan [45]. O`zbek substansial tilshunosligi o`z davrining ilg`or lingvistik maktabi hisoblangan Praga strukturalizmidan lison-nutqni farqlash, lisoniy va nutqiy birliklarning tabiatи haqidagi ilmiy qarashlarni qabul qildi. Bu qarashlarni dialektik falsafaning substansiallik omili hamda umumiylig, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) va alohidalik (yakkalik), hodisa, voqelik, oqibat (AHVO) kategoriyalari mazmuni bilan boyitdi. Natijada, lison va lisoniy birliklar UMIS sifatida, nutq va

nutqiy birliklar esa AHVO mavqeyida talqin etildi. Asosiy lingvistik tushunchalar dialektik mazmun bilan to`ldirildi va dialektik kategoriyalarga mos ravishda tahlil qilindi. Professor H.Ne'matov bu yo`nalishning maqsadi “S.N.Ivanov 1960-yillarda asos solgan, bosh tamoyili struktural tahlilni ongli, dialektik, metodologik tamoyillar asosida takomillashtirib, tilga tafakkurni shakllantiradigan va rivojlantiradigan, nutqiy muloqotda minglab shakl va ko`rinishlarda voqelana oladigan, har bir shakli o`ziga xos maqsad va vazifaga ega bo`lgan imkoniyatlar xazinasi sifatida yondashish bo`lgan o`zbek substansial tilshunosligini rivojlantirishga qaratilgan edi”, -deb yozadi [31,36].

O`zbek substansial tilshunosligida lisoniy birlik nutqda voqelanuvchi barcha ma`no va vazifalarni o`zida mujassamlashtirgan umumiy lisoniy mohiyat – zot, substansiya, asos sifatida talqin etiladi [10;11;17;40;45; 6;14]. Sistema va element munosabati til tizimiga xos. Til tizimi uni tashkil etuvchi elementlarning o`zaro shartlangan zaruriy munosabatlari yig`indisidan kattaroq mohiyatga egadir [10;11; 40;42;45;14]. Demak, tizimga xos substansiallik tizimning asl mohiyatini belgilovchi muhim xususiyatdir. Shunga ko`ra, o`zbek tilshunosligida til tizimi va uning birliklariga xos lisoniy mohiyat substansial yondashuv asosida ochib berilgan.

### **1.1. Gapning lison-nutq farqlanishidagi tahlili**

O`zbek tilshunosligida sintaksisning asosiy birliklari – so`z birikmasi va gap substansial yondashuvda o`rganilgan va buning natijasida substansial sintaksisning nazariy asoslari ishlab chiqilgan.

O`zbek substansial tilshunosligining vakillari – H.Ne'matov, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, M.Qurbanova, M.Abuzalova, L.Raupova, Sh.Akramov, S.Nazarova o`z tadqiqotlarida o`zbek tili sintaktik hodisalarida substansial va aksidensial jihatlarni farqlab, gap va so`z birikmalari lisoniy qurilishini lison-nutq qaramaqshiligi asosida izchil tavsiflab berdilar. Shuningdek, o`z tadqiqotlarida so`z birikmasi, sodda gap, qo`shma gap, so`z-gaplarning substansial mohiyatini aniqlab, lisoniy-sintaktik qoliplarini ishlab chiqdilar [10;11;6;17;14;40;45]. Bu tadqiqotlarda gapning lisoniy mohiyatini ochib berish jarayonida gapning eng kichik qurilish

qolipi lisoniy birlik sifatida e'tirof etildi. Gapning hosil bo`lishi, lisoniy qurilishi, gap turlari va uning tahlilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi asos sifatida qabul qilindi.

O`zbek tilining sintaktik qurilishi lison-nutq farqlanishi asosida o`rganila boshlandi. Chunki sintaktik birliklar mohiyati ana shu tahlil mezoni asosida aniqlanadi. Tilshunoslar gapning faqat tashqi tomoniga emas, balki ichki tomoniga ham e'tibor qarata boshladilar. Formal sintaksis bevosita kuzatishda berilgan, og`zaki hamda yozma shakllarda voqelangan hodisalarni o`rganishga diqqatini qaratdi. Uning tahlil asosini aynan bevosita kuzatishda berilgan nutqiy sintaktik hodisalar tashkil etadi. Formal tilshunoslikda lison va nutq hodisalarini farqlamaslik, imkoniyat va voqelik, umumiylilik va xususiylik kabi tushunchalarni chalkashtirish sintaktik hodisalarning substansial mohiyatini ochishga to`sinqinlik qildi. Shu asosda “an’anaviy sintaksisda gapning bir va ikki tarkibliligi, asosan, sodda gap materiali asosida o`rganiladi” [17] hamda sodda gaplar yig`iq va yoyiq turlarga bo`linadi. O`zbek tilshunoslige rus tilshunoslige zaminida rivojlanganligi, shuningdek, logik oqimning ta’siri tufayli sodda gaplar [S–P] qolipida tasvirlangan va talqin etilgan edi. Gap haqidagi formal sintaksisda professor A.G`ulomov va uning izdoshlari o`zbek tili gap qurilishiga rus tilining gap qurilishiga xos me’yor va qoidalar asosida yondashdilar. Buni olimning “Sintaksis asosida gap haqidagi ta’limot yotadi” degan qarashi ham tasdiqlaydi.

O`zbek tilshunoslida tilga sustema sifatida yondashilib, lison va nutq hodisalari farqlandi hamda gapning til sathidagi eng kichik qolipi ishlab chiqildi. Tilshunos M.Qurbanova yozganidek, “Nutqimizda berilgan va an’anaviy sintaksisimizda atroflicha tahlil etilgan gap uning shakl va vazifa turlari til sathida ongimizda mavjud bo`lgan umumiylilikning, gap eng kichik qolipining turli lug`aviy qurshov va nutq sharoitlarida minglab muayyan shakllarda yuzaga chiqishida namoyon bo`lishi aniqlandi” [17,67].

Tilga sistemaviy yondashuvning negizi lison-nutq hodisalarini farqlash bo`lganligi sababli tadqiqotchilarning bir guruhi sistem sintaksis tahlilini izchil ravishda gapning til sathidagi eng kichik (minimal) qurilish qolipini ishlab

chiqishdan boshladi. Chunki yaxlit sintaktik talqinni ishlab chiqish uchun gap qolipi bosh mezon vazifasini o`taydi. Gapning lisoniy mohiyatini o`rganish uchun uning “joni”ni – “til sathidagi eng kichik qolip”ni [40;45] belgilash zarur edi.

Sodda gapning til sathidagi mohiyatini belgilashda gap haqidagi quyidagi muhim nazariy asoslarga tayanildi:

1.Gapning eng kichik qurilish qolipi lisoniy birlik sifatida ongimizda mavjud umumiy birlik bo`lib, u nutqimizda fikrni lisoniy qonunlarga muvofiq tarzda shakllantiruvchi va voqelantiruvchi imkoniyatdir.

2.Gapning eng kichik qurilish qolipini belgilashda uning tashqi qurilishi, ichki qurilishi va mohiyati ajratildi.

3.Gapning eng kichik qurilish qolipidan o`rin oladigan tarkibiy qismlarning mohiyatini belgilashda birikuvchanlik (valentlik), ya`ni lug`aviy birliklarga xos ma’noviy (semantik) va sintaktik, shuningdek, kesimlik shakllariga xos morfologik birikuvchanliklarga asoslanildi.

4.O`zbek tilida gapning eng kichik qurilish qolipini belgilashda Hind-Yevropa tillari bilan turkiy tillar orasida gap qurilishidagi asosiy tafovut hisobga olindi. Aniqroq aytganda, Hind-Yevropa tillariga bir tarkibli gaplar, umuman, xos emas va gap qech qachon egasiz bo`la olmaydi. Turkiy tillar, xususan, o`zbek tilida “Men xatni yozaman, sen xatni olib kelasan” gapi bilan “Xatni yozaman, olib kelasan” gapi orasida keskin farq yo`q, ya`ni o`zbek tilida kesim shaxs-son jihatdan mukammal shakllangandir.

Mana shu to`rt asos sodda gapning eng kichik qurilish qolipini, ya`ni [WPm]ni belgilashda inobatga olingan. Gapning lisoniy sintaktik mohiyatini umumlashtiruvchi til sathidagi eng kichik qurilish qolipi olima M.Abuzalovaning imiy tadqiqotida aniqlangan. Sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning variantlari haqida ma’lumot M.Abuzalovaning “Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши” mavzusidagi ilmiy ishida [40] berilgan. Mazkur ishda o`zbek tilida gapning lisoniy bosqichdagi eng kichik qurilish qolipi – [WPm] – (atov birligi – [W] + kesimlik ko`rsatkichlari – [Pm])

ko`rinishiga ega ekanligi isbotlangan. Shu asosga tayangan holda sodda gapning nutqiy va lisoniy qurilishi orasidagi asosiy tafovut ochib berilgan edi [40, 5].

Bunda [W] – kesimning, gap kesimining atash, lug`aviy ma`no bildirishga xizmat qiladigan qismi bo`lib, mustaqil so`z turkumiga oid bo`lgan, ya`ni kesim vazifasida kela oladigan so`zga, so`z birikmasiga, kengaytirilgan birikmalar (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomlari oborotlari)ga teng kelishi mumkin. Boshqacha aytganda, [W] lisoniy qolipdagi imkoniyat bo`lib, nutqda atov birligi vazifasini o`tay oladigan va shu nutqning istagan bir birligi (so`z, so`z birikmasi va hatto gap) shaklida voqelanishi mumkin. [Pm] esa atov birligi [W]ni gap qolipi shakliga keltiruvchi vositalar majmuasining ramzi bo`lib, u nutqda kesimlik kategoriyasi ko`rsatkichlari shaklida voqelashadi. Demak, “Til bosqichida gap atov birliklarining kesimlik kategoriyasi ko`rsatkichlari bilan shakllangan ko`rinishidir. Bu esa [WPm]ga tengdir” [40, 9]. Gapni bunday ta’riflash A.G`ulomov tomonidan ishlab chiqilgan “gapning mohiyati “ega+kesim” munosabatidagi butunlikdadir” degan ta’limotni turkiy tillarning ichki xususiyati – kesimning hamisha to`liq shakllanganligi sababli gap egasining shaxsi va soni aniqligi asosida to`ldiradi. E’tiborli jihat shundaki, “Ega gapning eng kichik qurilish qolipi tarkibiga kirmaydi va gap qurilishida alohida mavqega molikdir“ [40, 9].

O`zbek tilida kesim o`z shakli bilan harakat(belgi)ning qaysi shaxs ba songa mansubligini ifodalab turadi. Bu esa ega mavqeyining gap tarkibida pasayishiga, ko`p hollarda yo`qolishiga olib keladi. Chunki kesimning morfologik tarkibi ega haqida to`liq ma'lumot beradi. Shuning uchun gapning lisoniy bosqich, ya`ni zaruriyat, majburiyat, imkoniyat va umumiylig bosqichidagi qolipi tarkibida ega o`rin ololmaydi. Tilshunos M.Abuzalova bunga shunday izoh beradi: “Ega gap tarkibida moddiy shaklda ifodalanishi ham mumkin, ifodalanmagan bo`lib, kesim tarkibidan anglashilib turishi ham, shuningdek, gap tarkibida bo`lmasligi va bo`lolmasligi ham mumkin. Ammo eganing gapdagi mavqeyini aniqlovchi, to`ldiruvchi, hol bilan tenglashtirib bo`lmaydi. Kesim markaziy bo`lak bo`lsa, ega birinchi darajali bo`lakdir” [40, 10]. [WPm]=SG qolipining [Pm] qismida tasdiqinkor, mayl, zamon va shular bilan birga, shaxs-son ma`nosi borki, gapning egasi

keyingi grammatik ma’noni aniqlab, ochib keladi. Aynan shu ma’nosi asosida gaplarda ega tiklanishi yoxud tiklanmasligi mumkin.

Gaplarda ega tiklanishi yoxud tiklanmasligining sababi to`g`risida ko`plab tilshunoslarning qarashlarida umumiy jihatlar mavjud: o`zbek tilshunosligida boshqa turkiy tillarda bo`lgani kabi, shaxs-son kategoriyasi mustahkam o`ringa ega bo`lib, u bilan shakllangan kesim, harakat(holat, belgi)ning qaysi shaxs-songa oidligiga ishora qilib turadi, bu esa gap tarkibida ega mavqeyining pasayishiga, ko`p hollarda uning tushib ketishiga olib keladi [40;17;45;6;14;19]. O`zbek tilida zarurat bo`lmasa, ega tushurib qoldiriladi va kesimning o`zi gapni tashkil etadi. Qiyoslang: *1.O`qituvchiman. 2.Yozyapmiz. 3.Ko`rmoqchi edingiz. 4.O`qigan ekan. 5.Taklif qilishdi.*

O`zbek substansial sintaksisida gap nazariyasini shakllantirishda gapning lisoniy sathdagi eng kichik qurilish qolipi – [WPm]=SG asos qilib olindi va atroflicha tadqiq etildi. Substansial yondashuv o`zbek tili grammatik qurilishi talqinini tubdan yangiladi va gap haqidagi substansial ta’limotni rivojlantirdi.

Gapning eng kichik qolipi ([WPm]=SG) til birligi, umumiylilik, mohiyat, imkoniyat sifatida ongimizda yashaydi [6;14;17]. [WPm]=SG bevosita kuzatishda berilmagan. Aniqrog`i, biz bu qolipning rang-barangligini, xilma-xilligini va turlitumanligini to`laligicha hech qachon ko`ra olmaymiz, eshita olmaymiz, yoza olmaymiz. Bizning ongimizgina uni murakkabligi, mavjud imkoniyatlari bilan qamrab oladi. Chunki ongimiz [WPm]=SGni gapning umumiyligi va imkoniyati sifatida umumlashtirar ekan, qolip tarkibibidagi [W]ning ham, [Pm]ning ham cheksiz juz’iy xususiyatlaridan “ko`z yumadi” [6;14;40]. Chunonchi, o`zbek tilida mavjud istalgan so`z [W] vazifasida kela oladi va har biri alohidalik bo`lib, qator o`ziga xosliklarga egadir. M.Abuzalova buni quyidagicha izohlaydi: “Gapning umumiy qolipini shakllantirganimizda biz shu so`zlarning juz’iy xususiyatlariga (ma’nosi, turkumi, uslubi, bo`yog`i) e’tibor bermadik va hamma so`zlar uchun umumiy bo`lgan bitta xususiyat – nutqda atash, nomlash qobiliyatiga tayandik” [40]. Qolipdagi [W]ning o`rnida nafaqat so`zlar, balki so`zlarning cheksiz, xilma-xil birikishidan tuzilgan so`z birikmalari ham kelishi mumkin. [WPm]=SG

qolipida [W]ning o`rnini egallay oladigan birliklar sirasiga so`z birikmalari ham kiritilar ekan, so`z birikmalarining har biri uchun xos bo`lgan juz'iy xususiyatlar e'tiborga olinmaydi. Ularning bitta umumiyligi xususiyati – atash, nomlash vazifasini bajara olishi hisobga olinadi. Xuddi shunday fikrni [WPm]=SGning [Pm] qismiga nisbatan ham aytish mumkin. O`zbek tilida kesimlik ko`rsatkichlarining yuzdan ortiq yuzaga chiqish shakllari mavjud. Shunday bo`lsa ham, barcha shakllar uchun umumiyligi bo`lgan tasdiq/inkor, mayl/zamon, shaxs/son ma'nolarining birgalikda ifodalishiga asoslanib, [Pm] bir butunlik sifatida olinadi. [W] ham, [Pm] ham nutqda cheksiz miqdorda va xilma-xil turda voqelana oladi. Biz bularning barchasini hech qachon sanay olmaymiz. Zeroki, nutqda qo`llanilgan va qo`llanilayotgan barcha gap ko`rinishlarida [WPm]=SG u yoki bu variantda yuzaga chiqadi [6;14;17;40]. [WPm]=SG–gapning eng kichik qolipi til birligi bo`lib, nutqda yozma va og`zaki shakldagi gaplar ko`rinishida voqelanadi. Biz uning voqelanish shakllarini sanab, nihoyasiga yetolmaymiz. Ammo nutqdagi muayyan gaplar oralig`ida turgan [WPm]=SG turlarini ajratamiz va sanab o`tishimiz mumkin.

Ma'lumki, kesim tarkibi tasdiq-inkor, mayl, zamon, shaxs-son kabi grammatik ma'no va uni ifodalovchi shakllardan iborat. Bu tarkibiy qismlarning har biri asosida [WPm]=SG, uning nutqdagi eng qisqa ko`rinishi – ixcham gaplar kengayishi mumkin. [Pm]ning har bir ma'no tarkibi asosida ixcham gaplarning kengayishi o`z xususiyatlari ega va ko`pincha, mayl, zamon shakllarining ma'nolari bilan aloqador bo`ladi. [Pm]ning tarkibidagi bir ma'no turi, aniqrog'i, shaxs/son ma'nosi asosida ixcham gapning kengayishi gap qurilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Egani ifodalovchi ishoraning gap markazi hisoblangan kesimda bo`lishi gap qurilishida eganing boshqa gap bo`laklariga qaraganda muhim o`rin egallashini ko`rsatadi. Ega gapning qurilishi uchun majburiy, zaruriy bo`lak mavqeyini egallamasa ham, aniqlovchi, to`ldiruvchi, hollarga nisbatan yuqori mavqega ega va uning belgilari [WPm] tarkibida mavjud bo`ladi. Shuning uchun sodda gapning minimal qolipida kesim gap markazi, gapning bosh bo`lagi deb baholangan bo`lsa,

ega gapning birinchi darajali bo`lagi sifatida qabul qilingan. Egani bosh bo`lakka ishora orqali tiklash mumkinligi yoki mumkin emasligiga ko`ra sodda gaplar ikki turli bo`ladi: 1) ikki tarkibli gaplar; 2) bir tarkibli gaplar.

Ikki tarkibli ixcham sodda gaplarda kesim tarkibidagi shaxs-son ko`rsatkichlari yordamida gapning egasini tiklash mumkin:

*O`qidim* → *Men o`qidim.*

*Ishladik* → *Biz ishladik.*

Bir tarkibli ixcham sodda gaplarda kesim tarkibida III shaxs, birlik son ma’nosiga ishora bo`lsa ham, gapning egasini tiklash mumkin emas. Masalan, “*Tarqatildi*”, “*Yesa bo`ladi*”, “*Ko`rish mumkin*”, “*Oqshom edi*” (va h-zo).

O`zbek tilida eganing gapda ifodalanganligi yoki ifodalanmaganligi ikki tarkibli sodda gaplarning ikki turli bo`lishini ko`rsatadi: 1) ikki tarkibli egali sodda gaplar; 2) ikki tarkibli egasiz sodda gaplar.

Zamonaviy sintaksisda ega bilan kengaygan ikki tarkibli sodda gapga nisbatan an’anaviy “sodda yig`iq gap” atamasi qo`llanmoqda.

Bir tarkibli sodda gapning yig`iq ko`rinishi ixcham gapga teng bo`ladi. M.Abuzalovaning tadqiqoti va zamonaviy sintaksisda mavjud ilmiy qarashlar asosida [W] va [Pm]larning ifodalanishi va [Pm] asosida kengayishiga ko`ra gap turlarini ajratish mumkin. Lekin bu o`rinda ularni birma-bir tavsiflashga zarurat yo`q. So`z kengaytiruvchilari va gap bo`laklari orasidagi munosabatlarni atroficha yoritish asosiy vazifalar sirasidan o`rin olmagan. Gap minimal qolipi nutqda gaplarning turli ko`rinishlarini voqelantiradi. Jumladan, yoyiq va yig`iq gaplar hosil qilishda so`z kengaytiruvchilari va gap kengaytiruvchilarining gap qurilishiga ta’sirini inobatga olish lozim. Chunki nutqda gaplar kengayib, yoyiq gaplarni va kengaytiruvchilarsiz qo`llanib, yig`iq gaplarni hosil qiladi. Tabiiyki, bu umumiyl gap qolipining xususiy ko`rinishlarida alohida o`rin egallaydi va gapning nutqiy qurilishiga ta’sir qiladi.

O`zbek tilida gapning minimal qurilish qolipining olti asosiy ko`rinishi mavjud. Quyidagi qoliqlar [WPm]=SGning variantlari sifatida ajratiladi:

1.[IWPM I]=SG.2. [IWPM Yo]=SG.

- 3.[ $\exists+$  IIWPm Yi]=SG.
- 4.[ $\exists+$  IIWPm Yo]=SG.
- 5.[ $\exists-$  IIWPm Yi]=SG.
- 6.[ $\exists-$  IIWPm Yo]=SG [40; 6].

Shaxsni tavsiflash, gap markazini hamda kesimlik ko`rsatkichlarini moddiy shaklda ifodalash, modal ma'nolarni berish, gapni ifoda maqsadiga ko`ra, nutq sharoitiga moslashtirish, gapda ohang tugalligini shakllantirish kabi tom ma'noda nosintaktik hodisalar [WPm]=SG va uning olti variantida berilgan qurilish ko`rinishlarining ustqurmasisidir. Gap qurilishiga aloqador bo`lmagan bu hodisalar nutqdagi muayyan gaplarda nosintaktik hodisalarning gap qurilishidagi in'ikosi sifatida qaralishi lozim. Nutqda ro`yobga chiquvchi bu ma'nolar nutqdagi gaplar uchun benihoya zarur va ular gapdan tashqarida bo`lishi mumkin emas. Biroq ulardan birortasi ham gap qurilishi uchun muhim ahamiyatga ega emas. Chunki bir xil qurilishdagi gap ifoda maqsadiga ko`ra darak ham, so`roq ham, buyruq ham, undov ham bo`lishi va modal ma'nosiga ko`ra, qat'iy ishonch ham, neytral ham, taxmin ham bo`lishi mumkin. Shunday ekan, tahlilda lisoniy va nutqiy xususiyatlarni farqlaganda, sodda gapning lisoniy qoliplari nutqda voqelanishi uchun qaysi kategoriyalar prizmasidan o'tishini, o'tish jarayonida qanday ma'no bo`yoqlariga “bo`yalishi”ni va nutqda voqelashgan gap qolipning shu “bo`yoqxona”lardan o`nlab ranglarga “bo`yalib” chiqqan hosilasi ekanligini unutmaslik kerak.

## **1.2. So`roq gaplarning grammatik xususiyatlari**

O`zbek tilshunosligida gapning lison-nutq farqlanishi asosidagi tahlili gap qurilishiga doir muhim nazariy asoslarni belgilash, gapning lisoniy sintaktik mohiyatini ifodalovchi lisoniy sintaktik qolip va uning variantlarini aniqlashtirish uchun zarurdir. Negaki, til tizimida gapning mohiyati nafaqat lisoniy sintaktik qurilish qolipi, balki bu qolipning voqelanishlari orqali ochiladi. Gap lisoniy sintaktik qurilish qolipi va variantlari nutqda cheksiz voqelanish imkoniyatiga ega. Buni yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Ammo [WPm]=SGning nutqiy hosilalarida kuzatiladigan nosintaktik hodisalarga aloqador jihatlarning tahlilida bu fikrni

takrorlashga ehtiyoj seziladi. Chunki ishning tadqiq manbai sifatida belgilangan so`roq gaplar gapning ifoda maqsadiga ko`ra bir turidir. Ana shu xususiyati tufayli so`roq gaplar [WPm]=SGning nutqiy voqelanishlarida kuzatiladigan nosintaktik hodisalar bilan aloqadordir.

Nutqda voqelashgan gaplar qurilish xususiyatlaridan tashqari yana o`nlab nutqiy xususiyatlarga va nutqiy ma`nolarga ega bo`lishi mumkin. Bulardan biri – ohang va u bilan uzviy bog`liq bo`lgan gapning ifoda maqsadiga ko`ra, darak, so`roq, buyruq, undov, his-hayajon, so`roq-undov (риторик) va boshqa ma`nolarga ega bo`lishidir. Bundan tashqari, gap nutqda, albatta, ma'lum bir modal ma`nosiga ko`ra neytral, gumon, ishonch, taxmin, taajjub kabi ma`nolarga ega bo`lishi mumkin. Bunday ma`nolar gapning lisoniy qurilishiga, umuman, aloqador emas [40;6;14;17].

Gapning ifoda maqsadi nosintaktik hodisalardan biri bo`lib, gaplarning darak, so`roq, buyruq, undov, his-hayajon kabi ma`nolar kasb etishiga sabab bo`ladi. Maqsadimiz nosintaktik hodisalar va turlarini tavsiflash emas, balki o`zbek tilida gapning nutqiy ko`rinishlari sirasida alohida o`rin tutgan so`roq gaplarning grammatik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Fikrni shakllantirish va bayon qilish gap orqali amalga oshadi. Shu bois gap kishilarning bir-biriga axborot uzatish uchun ishlataladigan asosiy birlik bo`lib, fikr ifodalashning eng oddiy va tipik ko`rinishidir. Gap so`zlovchi uchun fikr ifodalash va axborot uzatish, tinglovchi uchun axborot qabul qilish vositasi sanaladi [6;8;14;17;19]. Tilning asosiy vazifasi odamlarning bir-birlarini tushunishlari va gaplashishlarida vosita bo`lib xizmat qilishdir. Axborot uzatish va qabul qilish vositasi bo`lish tilning kommunikativ mohiyatidir. Kommunikatsiya jarayoni jamoani taqozo qiladi. Aniqrog`i, muayyan tilda axborot uzatish va qabul qilish shu tilda so`zlashish malakasiga ega kishilarni taqozo qiladi. Bu esa kommunikatsiya jarayonining ijtimoiy tabiatliligidan dalolat beradi [6;14; 8].

Gap sintaktik yaxlitlik bo`lib, bu uning grammatik shakllanganligi tarkibiy uzvlari bir butunlik holiga kelganligi bilan izohlanadi. Demak, gapda bir necha jihat birlashgan bo`ladi. Birinchi jihat gapning moddiy qobig`i bo`lib, bu uni

tashkil etuvchi so`z va grammatik shakllardir. Har qanday gapda kesimlik ko`rsatkichlari bilan shakllangan atov birligi(kesim)ning bo`lishi shart. Ikkinchijihat ana shu moddiy qobiqqa singdirilgan aqliy mahsul – fikr – axborotdir. Uchinchi jihat esa so`zlovchining voqelikka munosabati – hissiy holatidir. Bu uch jihat tildagi triada(uchlik)ni –sintaktika, semantika va pragmatika birligini tashkil etadi [6;14;16].

Ma'lumki, gap kommunikativ birlik sifatida o`zida fikriy (semantik) va hissiy (pragmatik) kommunikatsiyani tashiydi [14;16;22;23;25]. Bu “barcha gaplar mutlaq ham fikriy, ham hissiy kommunikatsiyaning birligidan iboratdir” degan xulosaga olib kelmasligi lozim. Chunki ayrim gaplarda hissiy munosabat sezilarsiz bo`lsa, ayrimlarida sof hissiy kommunikatsiyagini mavjud bo`ladi (*Oh! Voy!*). His tuyg`ularni ifodalashda tildan boshqa vositalar (musiqa, raqs, imo-ishora) mavjudligi ham hissiy kommunikatsiyaning nisbiy mustaqilligini ko`rsatadi [14].

Gap, avvalo, sintaktik tugallangan qurilma ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu ifodalanayotgan fikrning nisbatan tugallanganligi bilan belgilanadi. Sintaktik tugallanganlik gapning kesimlik ko`rsatkichlari bilan shakllanganligi va tugal ohangga egaligidir. Gap kesimga ega bo`lmasdan tugal fikr ifoda eta olmaydi [14;6]. Masalan, *yaxshi odam* birikuvida so`zlovchi nazarda tutgan axborot yuzaga chiqmagan, chunki uning kitob haqida nima demoqchiligi ham aytilmagan. Shu bois mazkur qurilma fikrni ifodalaydigan qurilmaning asosiy shakli – kesimlikdan xoli. *Yaxshi odam* birikmasida odamning xususiyati haqida axborot bordek tuyuladi. Ammo bu so`zlovchining asosiy maqsadi belgilangan axborot emas. Bu ikkinchi darajali axborotdir. Chunki gapning yakunidan anglashiladigan shunday odamning mavjudligi yoki faoliyati haqidagi axborot asosiy planda yotadi. Demak, gapdan anglashilgan fikr deyilganda, undagi asosiy axborot tushuniladi. Yordamchi va asosiy bo`lмаган axborotlar uning yuzaga chiqishida vosita bo`lib xizmat qiladi [14]. Agar gap to`liqsiz gap bo`lib, unda sintaktik tugallik bo`lmasa ham, fikr anglashilaveradi. Bunday gaplardagi sintaktik tugallik kontekstdan yoki nutq vaziyatidan ma'lum bo`lib turadi. Sintaktik tugallik sintaktik o`rin bilan ajralmas holdadir, ya’ni lug`aviy birlik kesimlik shaklida bo`lishining o`zi uni gap

sifatida qarashga asos bo`la olmaydi. Chunonchi, *Aytdim deganing nimasi?* gapidagi *aytdim* so`z shakli kesimlik ko`rsatkichlari bilan shakllangan atov birligidir. Lekin u kesimlik o`rni bilan ta'minlanmaganligi bois ushbu qurshovda gap maqomiga ega emas. Kesimlik shaklidagi so`z gap bo`lishi uchun kesimlik maqomiga ega bo`lishi kerak. Sintaktik tugallanganlik kesimlik shakli va o`rni bilan belgilanar ekan, bunda tilning yaxlit vujudligi yana bir karra yaqqol namoyon bo`ladi [14;6;17].

Gapning sintaktik tugalligi uchun, dastavval, ma'lum bir mustaqil so`z va kesimlik shakli talab etiladi. *O`qidim* birligi *o`qi* leksemasi va *-dim* kesimlik shakli birikuvidan iborat. Demak, bunda tilning tarkibiy uzvlari – leksik va morfologik sathlarining birlikdagi harakati ko`zga tashlanadi. Gap, avvalo, leksik va morfrlogik sathlar birligidir. Aytiganidek, gap uchun bu ikki – lug`aviy va morfologik omil hamkorligi yetarli emas. Uning uchun sintaksisning o`ziga xos omili – sintaktik o`rin zarur bo`ladi. Sintaktik o`rin esa qurilmaning o`ziga xos tugal ohang bilan namoyon bo`lishini taqozo qiladi. Ko`rinadiki, fonetik omil sintaktik tugallikkaga yakun yasaydi. Demak, gapda tilning barcha sathlari – leksik, morfologik, sintaktik va fonetik sathlar yaxlit butunlik sifatida namoyon bo`ladi.

Nutqiy gapning muhim belgilaridan biri uning tugallangan ohingga ega bo`lishidir. Gapning fikriy va sintaktik tugalligi ohang jihatidan ham tugallik va yaxlitlikni taqozo qiladi: tugallangan ohang fikrning va sintaktik qurilishning tugalligini bildirib turadi. Zero, gap va gap bo`lmagan nutqiy hodisalarining muhim farqlaridan biri ham tugal bo`lmagan ohingga ega bo`lishidir [14]. Demak, so`z yoki birikma fikriy, sintaktik va ohang jihatidan tugallikkaga ega bo`lib, gap tusiga kiradi.

Ohang nafaqat gapning tugallanganligini, balki gapning turli tiplarini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qiyoslang:

*Bahor... Bahor. Bahor! Bahor? Bahor!?*

Bu so`zning atov birligimi yoki gap, gap bo`lsa, qanday tabiatga ega ekanligini nutqda faqat ohang ko`rsatmoqda. So`z yoki so`z birikmasi atov birligi sifatida nutqda gapdan ohang bilan ham farqlanganidek, gap tiplarini farqlashda

ham boshqa omillar bilan birgalikda ohangga tayaniladi. Masalan, *Jonim!* Bu gapning his-hayajon gap ekanligini faqat ohang ko`rsatmoqda. “*Voy, jonim!*” gapida esa leksik (voy) va fonetik (ohang) omil hamkorlik qilmoqda. Gapning ifoda maqsadiga ko`ra tiplari (darak, so`roq, buyruq), his-hayajon ifodalanishiga ko`ra turlarini belgilashda, leksik, morfologik omillar ishtirok etishi ham, ishtirok etmasligi ham mumkin, lekin fonetik omilning bo`lishi shart [14].

Gaplar mundarijasi, shakli va vazifasi jihatidan farqlanadi: *Men shaharga boraman.* *Men shaharga boramanmi?* *Men shaharga boray.* Bu gaplarda so`zlovchining maqsadi turlicha bo`lganligi bois ular turlicha shakllangan va gapning darak, so`roq va buyruq-istik turlari vujudga kelgan. Bu esa gapning turlicha ohangga ega bo`lishini taqozo etadi. Gaplarning grammatik shakllari bir xil bo`lganda ham ularni ohang farqlab turadi [14]. Demak, gapning grammatik shakli turlicha bo`lsa-da, so`zlovchining maqsadi va ohangi har doim muvofiq bo`ladi. Bir gapda turli xil maqsad ifodalangan bo`lishi mumkin. Masalan, “*Shaharga boraman!*” gapida darak bilan so`zlovchining shodlanishi ham ifodalangan va ular ohang orqali ”tasdiqlangan”.

Ma'lumki, gap ifoda maqsadiga ko`ra uch turga bo`linadi:

- 1) darak gap;
- 2) so`roq gap;
- 3) buyruq gap [14;19].

Ba'zi lingvistik manbalarda to`rt turga ajratilib, istak gap ham kiritilgan.

Darak gap orqali narsa-hodisa haqida xabar beriladi. Masalan: *Bugun havo juda issiq bo`ldi.* Darak gapdagi xabar keng ma'noda bo`lib, darak-xabar, orzu-umid, ta'kid, ishonch, maslahat, tashviq, sevinch, taajjub kabilarni ham qamrab oladi.

Ishimizda so`roq gaplar tadqiq obyekti bo`lganligi uchun mazkur gapning grammatik xususiyatlari diqqat markazini egallaydi. Ayonki, so`roq gaplar nutqda so`zlovchiga noma'lum narsa, hodisa, voqeа, predmet, shaxs, harakat, holat, makon, zamon yoki jarayon (va h-zo) haqida ma'lumot olish ehtiyoji tufayli vujudga keladi. Masalan: *Sinfda kim navbatchi?* (dars jarayonida); *Qachon hisobot*

*berasiz?* (ish jarayonida); *Ertaga nima bilan shug`ullanasisiz?* (suhbat davomida); *Sog`liging yaxshimi?* (so`rashish vaziyatida); *Menga muzqaymoq olib berasiz-a?* (bolaning onasi(otasi yoki yaqin qarindoshi)ga murojaatida); *Sen boshqalardan yashirgan haqiqat-chi?* (do`stlar suhbatida)... Aytish joizki, til egasi turli nutqiy jarayonda so`roq gaplar yordamida suhbatdoshidan javob olishga urinadi. Bu gaplar aksariyat dialogik nutqda, nutqiy muloqotda uchraydi. Shuning uchun barcha tillarda bo`lganidek, o`zbek tilida ham so`roq gaplarni shakllantiruvchi vositalar mavjud. So`roq gaplar

- 1) so`roq olmoshlari (*kim? nima? qaysi? qancha? necha? qachon?..*);
- 2) so`roq yuklamalari (-*mi*, -*chi*, -*a*, -*ya*);
- 3) so`roq ohangi yordamida shakllanadi va gap oxiriga so`roq belgisi (?) qo`yiladi [14;6;8;19].

So`roq olmoshlari bilan shakllangan turi so`roqqa javob bo`luvchi so`zni talab qiladi. Masalan: –*O`zbekiston Respublikasi madhiyasiga kim kuy bastalagan? – Mutavakkil Burhonov.*

– *O`zbek tiliga davlat tili maqomi qachon berilgan? – 1989-yilning 21-oktabrida berilgan.*

So`roq yuklamalari bilan shakllangan so`roq gaplar esa “**Ha**” yoki “**Yo`q**” javobini talab qiladi. Masalan: – *Buvimni ko`rgani boramizmi?* – **Ha.** Albatta, boramiz.–*Charos opam-chi?* – **Yo`q.** Hozir borolmaydi. Kasallarga qarashi kerak.

Ohang gapning ifoda mazmuniga ta`sir qilishi, jumladan, so`roq gaplarni shakllantirishi haqida mulohaza bildirgan edik. Chunonchi: Yaqinda farzandli bo`ladi. – *Yaqinda farzandli bo`ladi?* (*Yaqinda farzandli bo`ladimi?*)

Nutqiy voqelikda so`roq gapda so`roq ma’nosiga boshqa ma’no ham qorishgan holda bo`lishi mumkin:

- 1) so`roqning o`zi: *Halim keldimi?*; 2) so`roq-hayrat: *Xabar keldimi?*;
- 3) so`roq-taajjub: *May oyida ham qor yog`adimi?*; 4) so`roq-mannunlik: *Halim o`qishni tugatdimi?*; 5) so`roq-gumon: *Javob berarmikin?*; 6) so`roq-taxmin: *Sen Olim emasmisan?*; 7) so`roq-darak: *Tugatdimi?* (*Kordingmi, tugatdi ma’nosida.*); 8) so`roq-buyruq: *Tezroq jonamaysizmi?* [14, 382].

O`z navbatida, so`roq gaplar kutilayotgan javobga munosabatiga ko`ra uch turga bo`linadi:

1. Sof so`roq gap. Bunday so`roq gap, odatda, javob talab qiladi:
  - *Suv qani? Nega suv yo`q?* [49, 169]
2. Ritorik so`roq gap. So`roq gapning bu turida javob talab qilinmaydi. Chunki javob gapning o`zida yashiringan va barcha uchun ma'lum bo`ladi, mohiyatan darak, shaklan so`roq gap hisoblanadi: *Kim biladi erkak zotining ko`nglini?* [49, 169] *Yurtin sevmas odam inson bo`lgaymi?!* (I.Mirzo)

Ritorik so`roq gaplar mazmunan rang-baranglikka ega:

- tasdiqni ifodalaydi: *Kim ona yurtini sevmaydi?!*
  - inkorni anglatadi: *Vaqtni ortga qaytarib bo`larmidi?!*
  - taajjubni aks ettiradi: *Po`pisa qilgani qiziq bo`ldi-ku?*
  - g`azabni ifodalaydi: *Farzandlik oqibating shumi, ko`rnamak?*
  - shubhani anglatadi: *"Hovli-joy ham meniki" dersiz?!*
  - hayajonni ifodalaydi: *Nechun kerak bo`ldi senga ko`z yoshim, Nechun kerak, rubob, senga shuncha g`am!* (A.Oripov)
3. So`roq-buyruq gap. So`roq gapning bu turi "Hozirgi o`zbek adabiy tili" (T., 2009) darsligida shunday ta'riflanadi: "So`roq-buyruq gap so`roq yo`li bilan buyurish ma'nosini ifodalaydi: *Tezroq kelmaysizmi?*" [14, 382].

Aytiganlar asosida so`roq gapning asosiy belgilari haqida quyidagilarni ko`rsatish mumkin:

1. So`roq gap gapning ifoda maqsadiga ko`ra bir turidir.
2. So`roq gap grammatik shakllangan bo`ladi. So`roq gapni shakllantiruvchi vositalar uch xil: so`roq olmoshlari, so`roq yuklamalari va ohang (intonatsiya). Lisoniy tabiatiga ko`ra ular morfologik va fonetik vositalar hisoblanadi.
3. So`roq gap mazmuniga muvofiq ohangga ega bo`ladi. Nutqiy vaziyat va kommunikativ maqsad, shuningdek, mazkur gapni shakllantiruvchi vositalar so`roq ohangini belgilaydi.
4. So`roq gap nutqda, umuman, axborot olish, uning noma'lum qirralarini aniqlashtirishga xizmat qiluvchi sintaktik birlik sanaladi.

## **Bob bo`yicha xulosalar**

Gap kishilar orasida axborot uzatish uchun ishlatiladigan asosiy til birligi va fikr ifodalashning eng oddiy ko`rinishidir. Demak, gap kommunikativ vazifa bajaradi: so`zlovchi uchun fikr ifodalash va axborot uzatish, tinglovchi uchun axborot qabul qilish vositasi sanaladi.

O`zbek tilida gapning lisoniy sintaktik qurilishi substansial tahlil asosida o`rganilgan. Nutqda cheksiz miqdorda va xilma-xillikda voqelanuvchi muayyan gaplar til sathida tayyor turadigan gapning eng kichik qolipi – [WPm]=SGning hosilalaridir. O`zbek tilida gapning nutqiy ko`rinishlarini shakllantiruvchi va mazmuniy xususiyatlarini ta'minlovchi nosintaktik hodisalar gap umumiyl lisoniy qurilishiga ta'sir o`tkazmaydi. Til egalari nutqida yuzaga keluvchi xabar, tasdiq yoki inkor, buyruq, his-hayajon ifodalaydigan nutqiy gaplar, shu jumladan, so`roq gaplarning lisoniy sintaktik qurilishi [WPm]=SG qolipi va uning olti variantida umumlashgan bo`ladi.

Gapning ifoda maqsadi nutqda gaplarni shakllantiruvchi nosintaktik hodisalardan biridir. Bu hodisaning ahamiyati gap turlarini belgilashda, xususan, so`roq gaplarni hosil qilishida namoyon bo`ladi. O`zbek tilida gapning ifoda maqsadiga ko`ra, darak, so`roq va buyruq gaplar ajratiladi.

So`roq gapda ifodalangan maqsad noma'lum axborotni aniqlashdan iborat bo`lib, nutqda so`zlovchiga noma'lum narsa, hodisa, predmet, shaxs (va h-zo) haqida ma'lumot olish ehtiyoji tufayli vujudga keladi va aksariyat dialogik nutqda, nutqiy muloqotda uchraydi.

So`roq gaplar grammatik jihatdan so`roq olmoshlari, so`roq yuklamalari va ohang yordamida shakllanadi. So`roq gapni shakllantiruvchilar lisoniy tabiatiga ko`ra, morfologik va fonetik vositalardir. Kutilayotgan javobga munosabatiga ko`ra bunday gaplar uch turga bo`linadi: 1) sof so`roq gap; 2) ritorik so`roq gap; 3) so`roq-buyruq gap. So`roq gap mazmuniga muvofiq ohangga ega bo`ladi. Nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va mazkur gapni shakllantiruvchi vositalar so`roq ohangini belgilaydi. So`roq gap axborot olish, uning noma'lum qirralarini aniqlashtirishga xizmat qiluvchi sintaktik birlik sanaladi.

## **II bob. Tilning amaliy faoliyatiga pragmatik yondashuv**

### **2.1. Pragmatik lingvistikaning shakllanishi**

Til jamiyatda muhim aloqa vositasi bo`lib, uning amaliy faoliyati ham shu til yordamida aloqa qiluvchilar hayotida asosiy o`rinni egallaydi. Tilning amaliy faoliyati inson nutqiy faoliyatida alohidalik sifatida yuzaga chiqadi. Shuning uchun so`zlovchining nutqida lisoniy bilim zahirasidan foydalanish qobiliyati, tafakkuri, milliy madaniyati, milliy qadriyatlari va ruhiy olami ifodalanadi. Shu jarayon bilan bog`liq tilning amaliy faoliyatini tahlil qilish zamонавиъ tilshunoslik fani uchun dolzarbdir. Chunki axborotga bo`lgan ehtiyoj kuchayib borayotgan XXI asrda tilning jamiyat va shaxs hayotidagi o`rni, ahamiyati masalasiga yangicha yondashuvlar vujudga keladi. Bu yondashuvlar markazida til insonlarning nutqiy muloqot jarayonini shakllantiruvchi vosita sifatida o`rganiladi. Shuningdek, hozirgi davrda yuksalib borayotgan jamiyat va uning a`zolari dunyoqarashida milliy ong va madaniyat, milliy o`zlik va mafkura tushunchalarining mohiyatini ochish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun inson ijtimoiy faoliyatini o`zida mujassamlashtirgan “harakatdagi” nutq–muloqotni tadqiq etish pragmalingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi lingvistik tarmoqlar uchun dolzarb sanaladi.

Shaxsning obyektiv olamdagи barcha ijtimoiy harakatlari nutqiy faoliyatida o`z ifodasini topadi. Shu bois pragmatik lingvistika fanning nazariy va amaliy tarmog`i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o`zida mujassamlashtirgan nutqiy muloqot, muloqot sistemasi, nutqiy vaziyat, nutqiy muloqot ishtirokchilariga xos xatti-harakat, kommunikativ maqsad bilan aloqador masalalarni o`rganadi [16;12;13;20;24;29;30;32;33;34;41;43;44]. Pragmatik lingvistika tilshunoslikning yangi sohalaridan biridir. Uning shakllanishi Ch.Pirs, U.Djeyms, Ch.Morris singari olimlarning xizmati bilan bog`liq. Pragmatika grekcha ”pragmos” so`zidan olingan bo`lib, ”ish”, ”harakat” ma’nolarini bildiradi. Pragmatika atamasi fanga XX asrning 30-yillarida Ch.Morris tomonidan kiritilgan. U semiotikani semantika, sintaktika, pragmatika kabi tarkibiy qismlarga ajratdi. Tilshunoslikda pragmatikaning yangi tadqiqot obyekti sifatida yuzaga kelishi va ajratilishi

Ch.Pirsning g`oyalari, Dj.Ostin va Dj.Syorlning mantiqiy-falsafiy qarashlari, P.Graysning pragmatik nazariyasi, L.Linskiy va P.Stronsonning referensiya nazariyasi bilan uzviy aloqador. Bu nazariyalar pragmatikaning fan sifatida shakllanishi uchun boshlang`ich amaliy va nazariy manbaga aylandi. Shu tariqa, lingvistik pragmatika falsafiy g`oyalari ta'sirida shakllana boshladi. Pragmatik lingvistika ilmiy manbalarda pragmatik tilshunoslik yoki lingvistik pragmatika nomlari bilan yuritiladi. Bu tarmoq qanday atalishidan qat'i nazar, so`zlovchi ijtimoiy faoliyatining nutqdagi real ifodasini qamrab oladi.

Pragmatik lingvistika shakllanish jarayonida uning ilmiy obyekti va tadqiq masalalari oydinlashib bordi. Tilshunos V.V.Petrovning til haqidagi quyidagi tezisini esga olish o`rinlidir. Bu lingvopragmatikaning tadqiqiy chegarasini aniqlash uchun lingvistik mezon vazifasini bajaradi: "Inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so`zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo "o`sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo`lishning o`zi ushbu tilda so`zlash va anglash uchun kifoya qiladi" degani emas. Xuddi musiqali pyesa mazmuniy bilimlari uning ijrosi uchun yetarli bo`lmaganidek, buning uchun, eng asosiysi, o`yin mahorati, layoqatiga ham ega bo`lish lozim". So`zlash va anglash jarayoni ham xuddi shunday kechadi. Shuning uchun to`g`ri va aniq so`zlash uchun hammaga tushunarli bo`lgan semantik bilimlarnigina bilish yetarli emas, so`zlash va to`g`ri ifodalash uchun individual strategiya mahoratiga ega bo`lish kerak. Nutqiyl faoliyat – til ham xuddi shundaydir. Inson semantik bilimlarga ega bo`lishi mumkin, bunga ijtimoiy muhitning o`zi har qanday shaxs uchun ma'lum imkoniyatlarni yaratadi. Biroq semantik bilimlarga ega bo`lishning o`zi insonga so`zlash, fikrlash va ifodalash uchun ozlik qiladi. Inson lisoniy bilimlarni bilish bilan birga, ularni o`z maqsadi yo`lida tanlay olish va ifodalash imkoniyatiga ham ega bo`lishi lozim. Aynan shu jihatlarni lingvistik pragmatika o`rganadi.

F.de Sossyur tilni shaxmatga qiyoslash natijasida obyektiv olamdagи predmet, narsa va hodisalarining shaxmat donalari sifatida nomlagan bo`lsa (shaxmat donalarini yuritish qoidalarini egallash bilan o`yin ko`rsatishni ham bilish kerak), Vitgenshteyn esa tilga xos umumiyl qonuniyatlarni "Semantik o`yin subyekti uchun

ma'lum tushunchalar semantika deb qaraladi, har bir semantik o'yinga xos oddiy yurish tartibi ham semantika, o`yin ishtirokchilarining o`ziga xos strategiya tushunchasi pragmatika deb talqin etiladi”, deb hisodlaydi. Demak, nutqiy akt bilan matn o`rtasidagi munosabat juda kuchli bo`lganda, nutqiy akt mazmuni matn bilan bog`liq yechilgan joyda pragmatikaga ehtiyoj tug`iladi.

Shunday qilib, gapdan anglashilgan mazmun bilan subyekt munosabati pragmatikaga daxldor masala bo`lib, nutqiy akt, matn, nutqiy vaziyat, so`zlovchi shaxsi kabilar pragmatik lingvistikaning markaziy tushunchalari sanaladi.

## **2.2. Lingvistik pragmatika va uning tadqiq manbayi**

Badiiy matnda aks etgan nutqiy aktlar va so`zlashuv uslubi bilan bogliq kundalik nutqiy muloqot shakllariga xos xilma-xil mazmuniy ifodalarning pragmatik talqini pragmatik lingvistikaning tahlil usullariga egaligini ko`rsatadi. Shunga ko`ra, lingvistik ilmiy paradigmani yangilagan pragmatika tilshunoslikning alohida tarmog`i sifatida ajratiladi. Pragmatik lingvistikaning asosiy birliklarini til va nutq ziddiyatida talqin etish uning tilshunoslik fanidagi qimmatini oshiradi.

Pragmatik lingvistika o`z-o`zidan paydo bo`lmagan. Tadqiqotchilarining semantikaga qiziqishi natijasida lingvistik nazariyalar rivojiga ta'sir etgan bir qator omillar pragmatik lingvistikani mustaqil sohaga aylantirdi [12;16;13;22;23;25;29; 30;32]. Chunonchi, lingvistikaning gap mazmuni – propozitsiyaga alohida diqqat qiluvchi mantiq bilan munosabatining yangi pog`onaga ko`tarilishi, til va nutqning mazmun tomoniga umumiyl burilishi, nutq faoliyatining pragmatik komponentiga e'tiborning kuchayishi, gapga maxsus ma'nosiga ega til belgisi sifatida qarashning paydo bo`lishi va sintaktik transformatsiya nazariyasining vujudga kelishi singari omillar turtki bo`ldi.

Ma'noli birliklar onomasiologik va semasiologik nuqtayi nazardan o`rganilgan. Onomasiologik yo`nalishda obyektiv olamdagи makro va mikro olamlarning tilda qanday ifoda etilishi va har qaysi tilning o`ziga xos ifoda imkoniyatlari o`rganiladi. Shuni hisobga olib, tilni maydon sifatida o`rganishga e'tibor qilinadi. O`zbek tili pragmatikasi obyektiv olamdagи voqeliklarni aks ettiruvchi elementlardan tashkil topib, funksional maydon sifatida ma'lum

sistemaga birlashadi. Demak, til elementlari xususiy munosabatni ifodalash vazifasiga ko`ra pragmatik maydonni hosil qiladi.O`zbek tilshunosligida pragmatik lingvistika bo`yicha ba`zi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq muloqotda shaxs omili bilan bog`liq masalalar, jumladan, kommunikantlarning madaniy kompetensiyasi, nutqiy akt ishtirokchilarining o`zaro munosabati va axloqiy masalalarga ta`siri hamda muloqotni boshqarishi kabilar lingvistik pragmatikada yechimini kutayotgan muammolardir [24;29;30]. Shuningdek, pragmalingvistik birliklar, tilning pragmatik modellari xususida o`zbek pragmatik tilshunosligida fikr bildirilmagan.

Pragmatik lingvistika tilshunoslikning alohida tarmog`i sifatida endigina o`rganilayotganligi bois pragmalingvistik kategoriylar, uning birliklari to`g`risida nazariy umumlashmalar yetarli darajada shakllanmagan.Chunonchi, L.A.Kiselyova har qanday tadqiqot obyekti ma'lum lingvistik birliklar sistemasidan iboratligi, ular maxsus til modellarini hosil qilishi, pragmalingvistik birliklar va kategoriylar ham mavjudligini ta'kidlaydi. Uning qarashlari L.Bertalanfi, A.A.Leontyev kabi olimlarning “O`zida aniq yo`nalishga ega bo`lgan barcha ilmiy tuzilmalar modellar sanaladi. Tahlil natijasi sifatida biz nimaga ega bo`lamiz, o`zimizning lingvistik faoliyatimizda nimaga erishamiz? Bu til modellaridir” degan g`oyasiga hamohang.

Shu ma'noda, pragmatik lingvistika ham o`z birliklariga ega bo`lib, til modelini hosil qiladi. Buning uchun tilning ta`sir etish va boshqarish vazifalari orqali so`zlovchi maqsadi asosida birlashuvchi, ya`ni pragmatik xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus pragmalingvistik birliklar sistemasini ajratish lozim.

Nutqiy ta`sir etish va nutqiy kommunikatsiya nazariyasiga ko`ra, sintaktik birliklardagi axborot tarkibi til birligi sifatida ikkiga ajratiladi: 1) informema; 2) pragmema. Bular pragmalingvistik birliklar sanaladi. Pragmalingvistik birliklar til birliklari bilan funksional til maydonida to`g`ridan to`g`ri zidlanadi.

Matn yoki nutq vositasida bayon qilingan har qanday axborot so`zlovchining ma'lum ichki maqsadini ifoda etish uchun xizmat qiladi. Shu ma'noda matn tarkibidagi axborot ko`rinishi ikki guruhga ajratiladi. Informema matn yoki nutqda

faqat so`zlovchi nazarda tutgan neytral vazifaga ega bo`lgan oddiy axborot ko`rinishidir yoki so`zlovchi xususiy munosabatidan xoli bo`lgan propozitiv mazmundir.

Informema – tilning turli sathiga oid birliklar bo`lib, ular faqat ratsional, intellektual axborot tashuvchi belgilarga ega bo`ladi. Informemalar o`zida faqat ratsional, intellektual axborot ko`rinishlarini ifodalashi bilan pragmemalardan farq qiladi. Informemalar bajarayotgan vazifasiga ko`ra, intellektual-informativ til maydonining qurilish unsuri sifatida namoyon bo`ladi.

Pragmemalar esa inson axloqiga ta`sir etish vazifasiga ko`ra informemalar bilan ziddiyatga kirishadi. Agar informema faqat intellektual-informativ belgisi bilan namoyon bo`lsa, pragmemalar so`zlashuvchilar o`rtasidagi munosabatda inson axloqini aks ettirish xususiyatiga ko`ra ajralib turadi va shu belgisi asosida ziddiyat hosil qiladi.

Pragmemalar ham tilning turli sathdagi birliklari bo`lib, ular maxsus pragmatik vazifaga xoslangan bo`ladi. Bular inson xulqini boshqarish uchun xizmat qiladi. Bularga nutq subyekti ichki ruhiyati bilan aloqador emotsional hodisalarni ifoda etuvchi til birliklari kiradi. Pragmemalar doimiy pragmatik axborot tashuvchilardir. Pragmemalar o`z semantikasi yoki bajarayotgan vazifasiga ko`ra ikki guruhga ajratiladi. Ba`zi pragmemalarda faqat pragmatik vazifasiga ko`ra dominantlik xususiyati mavjud bo`ladi. Bunday pragmemalar faqat adresat ruhiyatiga ta`sir etish uchun mo`ljallangan bo`lib, axloqiy holatni boshqarishga xizmat qiladi. Masalan, X.Sultonovning ”Adash Karvon” qissasidagi quyidagi nutqiy muloqotga e’tibor qilaylik:

- *Bu Nurmata dan hech darak bormi? Husniya boshini sarak-sarak qildi:*
- *O`sha o`yinchi xotinning orqasidan badar ketgani...*
- *O`, battol! Bu donadek bolalarni qandoq ko`zi qiydi ekan-a? – Adach Karvon ilkis qo`zg`alib qo`ydi. – Axir, bir kun buning savol-javobi bor-ku, nima der ekan o`shanda?! Hah, xomqayish, yetimning haqi yetti daryoni quritadi-ya!*

Matnda battol, ”donadek”(bolalar), ”qandoq ko`zi qiydi ekan-a?”, ”xomqayish, ”yetimning haqi yetti daryoni quritadi” birliklari muallif

munosabatidagi emotsional baholashni aks ettiradi. Bu birliklar tilning turli sathlariga tegishli bo`lsa ham, pragmemalar sifatida emotsional baho maydoni birliklari sanaladi. Bunday birliklar emotsional baho va shaxs munosabatini ifoda etuvchi pragmatik funksional maydon yadrosini hosil qiladi. Bu maydon tarkibiga kiruvchi pragmemalar faqat pragmatik vazifaga xoslanganligi bilan xarakterlanadi.

Pragmemalarning ikkinchi guruhi esa pragmatik funksiya bilan birga xabar vazifasidan iborat belgiga ham ega bo`lgan til birliklari kiritiladi. Bunday pragmemalar ham pragmatik funksiyani, ham axborot berish vazifasini bajaradi. Biroq ularning axborot berish vazifasi pragmatik funksiya uchun ham asos bo`ladi. Bunday pragmemalar o`z semantik xususiyatiga ko`ra informema bilan noto`liq ziddiyatga kirishadi. Bunday birklarga emotsional-baho bildiruvchi so`zlar kiradi. Axborot berishdan tashqari, ular so`zlovchining munosabatini ifodalarydi.

Tilning turli sathlariga aloqador pragmemalar pragmatik “yuk”ka ega bo`limgan informemalar bilan noto`liq ziddiyatni funksional ta’sir etish belgisi asosida hosil qiladi. Chunki informemalarda nominativlik, deyktivlik, relyativlik xususiyatlari mavjud. Pragmemalar va so`zlovchi munosabati semasi bilan sintagmatik munosabatga kirishuvchi har qanday lisoniy birliklarni nutqiy jarayonda muayyan pragmatik nuqtalar birlashtiradi. Bu pragmatik nuqtalar obyektiv olamdagи voqelik, makon va zamon, shaxs kabi joylashish xususiyatlari bilan pragmatik maydonni hosil qiladi. Pragmatik maydon o`z ichki tasnifida undash, emotsional-baholash, emotsional-estetik o`zaro murojaat kabi kichik sistemalarga bo`linadi.

Pragmatik maydon tushunchasi ostida matn muallifining obyektiv borliq, shuningdek, o`zi ifodalayotgan fikrga munosabatni bildirish vazifasi nuqtayi nazardan til va nutq birliklarining o`zaro bir sistemani hosil qilishi nazarda tutiladi. Shaxs munosabati mavjudligi, so`zlovchining ichki his-tuyg`ulari va bosh maqsadi bilan aloqador til vositalari pragmatik maydon tushunchasini ifoda etadi. Chunki til birliklariga xos barcha birikish imkoniyatlari, ayniqsa, gap valentliklari odatiy va daf`atan namoyon bo`luvchi kontekstual ma’no bosqichida o`zining pragmatik semasi bilan pragmatik maydonga aloqador bo`ladi. Masalan, “*Bola bola-da*”

jumlesi “Bolalarning kattalardek bo`lmasligi, ya’ni ularning yoshligi, g`o`rligi va tajribasizligiga” ishora qiluvchi munosabat semasi bilan pragmatik maydon tarkibiga kiradi.

Pragmatik maydonning yuzaga kelishi tilning kommunikativ vazifasi bilan uzviy bogliq. Chunki kommunikativ vazifaning o`zi quyi sathda ikki guruhga ajratiladi. Bunga ko`ra, har qanday matn tarkibida til va nutq birliklari ikki xil qimmatga ega bo`ladi. Birinchisi, bayon qilinishi lozim bo`lgan axborot ko`rinishining sof intellektual-xabar mazmuniga ega bo`lishidir. Ifoda tarkibida so`zlovchi ichki maqsadini aks ettiruvchi yashirin mazmuniy komponentlarning ishtirok etmasligi axborotning sof xabar mazmunidan tashkil topganligini ko`rsatadi. Kommunikativ niyatning ma’lum maqsadga aylana boshlashi bilan intellektual-xabar mazmuni pragmatik maydon uchun xizmat qila boshlaydi.

Tilning pragmatik vazifasi insonning ruhiyatiga ta’sir etish va nutq subyektining voqelikka munosabatini aks ettirish, undash, emotsional baho, estetik ta’sir etish, o`zaro murojaatni ifodalash kabi turlicha ko`rinishlardan iborat. Shunga ko`ra, tilning turli elementlari pragmema sifatida pragmatik til maydonini tashkil qiladi. Mulohazalar yakunida aytish joizki, informema va pragmemalar lingvistik pragmatikaning asosiy birliklari sifatida o`z doirasiga presuppozitsion xabar, propozitsiya, yiqi va yoyiq tasviriy mazmunni qamrab oladi va nutqda sintaktik birliklar orqali namoyon bo`ladi.

### **2.3. Muloqot va madaniy kompetensiya**

Tilshunoslikda antropologik omilning tadqiqotchilar diqqat markazidan o`rin olishi tilga yondashuv tabiatini o`zgartirdi. O`zbek tilshunosligida tilni pragmatik, sotsiopragmatik, etnosotsiopragmatik, lingvokulturologik yo`nalishlar va tahlil usullari asosida o`rganish maydonga keldi. Bu yo`nalishlarda, xususan, pragmalingvistik tadqiqotlar izchillik bilan amalga oshirilayotganligini ta’kidlash kerak. Keyingi yillarda pragmalingvistika maqsadi va vazifalari, tadqiq obyekti va tahlil usullari aniqlangan fanning mustaqil tarmog`iga aylandi. Ayniqsa, fonopragmatika, morfopragmatika, leksikopragmatika, sintaksopragmatika

sohalarining paydo bo`lishi va rivojlanishi uning ilmiy asoslarini mustahkamlab bormoqda.

Pragmalingvistika ko`p jihatdan boshqa turdag'i fan sohalari bilan hamkorlik qiladi. Bu munosabatlar, dastavval, uning lisoniy tizim yaxlitligini belgilaydigan sathlar va ularning birliklarini o`rganuvchi lingvistik sohalar bilan hamkorligida aks etadi. Chunki insonning nutqiy muloqot qobiliyatini o`rganish til tizimi, lisoniy sathlar va birliklar haqidagi ontologik bilimlarsiz amalga oshmaydi. Insonning lisoniy qobiliyati va bilimlarisiz muloqot yuzaga kelmaydi, umuman, nutqiy akt hosil bo`lmaydi. Shuning uchun birinchi galda pragmalingvistika til tizimida bir-birini taqozo qiluvchi va almashtiruvchi lisoniy birliklar hamda mazkur birliklarni tadqiq etuvchi lisoniy sathlar bilan hamkorlikda ish yuritadi.

Pragmatikaning sintaksis bilan munosabati masalasiga kelsak, ba`zi tilshunoslar bunday munosabatning bo`lishini inkor etishga harakat qilishadi. biroq sintaktik birliklar, sintaktik hodisalar, gapning konstruktiv bo`laklari, ularning gap tuzilishidagi o`rni, diskursni shakllantirishdagi vazifalari pragmalingvistik tahlil uchun behad zarur. Chunki sintaksisning pragmatik vaziyat va diskurs talabiga moslashishini ta'minlovchi lisoniy omillarni aniqlash sintaksopragmatika nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Ayniqsa, sintaksisning pragmatik maqsad uchun “xizmati” muhim sanaladi. Pragmalingvistikaning sintaksis bilan aloqasi nutqiy aktlarni guruhlash va tasniflashga doir masalalarda yaqqol ko`rinadi. Gaplarning kommunikativ turlari – darak, so`roq, buyruq, undov gaplar guruhlarining illokutiv maqsadni ifodalash darajasini aniqlash sintaktik qurilmalarning pragmatik imkoniyatlarini bilish uchun zarurdir. Bundan tashqari, gap strukturasi va bevosita nutqiy akt munosabatini o`rganish til tizimidagi ma’no va shakl asimmetriyasining nutq sathiga ko`chishi va pragmatik asimmetriyaga aylanish tartib qoidalarini aniqlash imkonini beradi.

Pragmatikaning substansial yo`nalishdagi tadqiqotlar bilan bog`lanishi lisoniy birliklar mazmun-mohiyatini yanada batafsil yoritish imkonini yaratadi. Har qanday grammatik tahlil lisoniy birlik, shakllarning ma’nosini, ularning mundarijaviy xususiyatlarini aniqlash vazifasini qo`yadi. Bu birliklarning asl

ma’nosi va mazmunini matnga, muloqot muhitiga murojaat qilmay aniqlash va tavsiflash qiyin. Shuning uchun pragmatik ma’lumotlar semantik-sintaktik tadqiqotlar samarasi uchun muhim sanaladi.

Pragmalingvistika lisoniy tafakkur faoliyati va uning natijasida yuzaga keladigan lisoniy-mantiqiy hodisalar—presuppozitsiya, implikatura, illokutiv maqsad kabilarning muloqot matnida voqelanishi masalalari bilan shug`ullanadi. Nutq ijodi faoliyatida uchraydigan pauza, sukut saqlash, ikkilanish kabilar kognitiv jarayon hodisalari bo`lib, ular kommunikativ maqsad ifodasi uchun xizmat qiladi. Nutqiy muloqot hamkorligining asosiy maqsadi – axborot almashinuvi va bu maqsadga erishish uchun suhbатdoshlar bir-birlarini tushunishlari lozim. Shunday ekan, nutqiy hamkorlik samarali bo`lishini ta’minlovchi vosita muloqot ishtirokchilarining lisoniy-kognitiv qobiliyatidir. Bu qobiliyat yetarli darajada shakllanmagan bo`lsa, kommunikatsiya “til bilmaslar” uchrashuviga aylanadi [16]. Bundan tashqari, muloqot matni tagma’noli mazmunga, implikaturali ifoda vositalariga boy ekanligini hisobga olish kerak.

Muloqot jarayonida, u og`zaki yoki yozma bo`lishidan qat’i nazar, shaxslararo munosabatni ta’minlash vazifasidan tashqari matn yaratish va fikrni uzviy ifodalash vazifalari ro`yobga chiqadi. Shu sababli muloqot mahsuli bo`lgan diskursni turli nuqtayi nazardan tadqiq etish talabi mavjud. Diskursning pragmalingvistik talqini uchun esa mazmun ifodasi, uning zohiriylari va botiniy belgilari, tagma’no turlari va kommunikantlar bilim doirasi, kognitiv-semantik hodisalar tadqiqi muhimdir. Asosiysi, diskursning strukturaviy va pragmatik-kognitiv qatlamlari bir xilda milliy-madaniy qobiqqa ega bo`lishidir [16].

Voqelik bilan munosabatga kirishayotgan, uni idrok etayotgan shaxs ongida ma’lum miqdordagi axborot oldindan mavjud bo`ladi. Shuningdek, har bir inson “shaxsiy kognitiv maydon”ga ega bo`ladi va shu asosda “jamoa (milliy) kognitiv maydoni” hamda “kognitiv bazasi” shakllanadi. Kognitiv baza, so`zsiz, etnik, milliy ko`rinishga ega [16]. Bu xususiyatlar kognitiv maydonda qanday harakat qilishi va muloqot faoliyatining qaysi jihatlariga ta’sir o’tkazishini aniqlash pragmalingvistikaning vazifasidir.

Madaniy “ssenariy” tushunchasidan foydalangan holda muloqot birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini tizimli tavsiflash mumkin. Muloqot matnining shakllanishi ikki bosqichli faoliyatdan iborat. Bu faoliyatning birinchi bosqichi kontseptual xususiyatga ega bo`lib, aynan shu bosqichda kommunikativ maqsadga mos keladigan freym shakllanadi. Masalan, ishontirish, qo`rqtish, so`rash, talab qilish, taklif qilish, ogohlantirish kabi illokutiv maqsadni ko`zlovchi nutqiy harakatlarni voqelantiruvchi freymlar muloqot strategiyasini belgilaydi. Ikkinci, ya’ni diskursiv bosqichda kontseptual tuzilma-freym o`z lisoniy ifodasini topadi.

Axborot almashinuvining mazmuniy negizini tashkil etuvchi konseptual tuzilma –freymning turli milliy-madaniy muhitlarda tarkiban mos kelmay qolish holatlari mavjud. Shuning uchun ularga izoh berish zarurati tug`iladi. Tasavvur qiling, ingliz tilida so`zlashuvchi do`stingiznikida choy ichyapsiz, u sizga mehmondo`stlik ramzi sifatida: “*Yana choy ichasizmi?*” - deb so`raydi. Siz ham mehmondo`stlik uchun tashakkur bildirasiz. Shunda do`stingiz so`rovni davom ettirishga majbur bo`ladi: “*Ha, rahmatmi*” yoki yo`q, *rahmatmi?*” [16].

Nutqiy muloqotdagi bunday anglashilmovchilikning sababi tashakkur iborasining noto`g`ri shaklda bo`lishida emas, balki o`zbek millatiga xos madaniyat me`yordir. Masalan, mehmondorchilikda mezbon iltifotidan qanchalik bahramand bo`lishni istasak ham, hech qachon mehmonning “*Ovqat yeysizmi?*”, “*Choy ichasizmi?*” kabi savollariga to`g`ridan to`g`ri tasdiq javobini bermaymiz. “*Rahmat!*” deyishning o`zi iltifotning qabulidir. Umuman, sharqona muomala madaniyatida “*ha*” va “*yo`q*”ning ifodasida keskin chegara yo`q. Yaponlar har qadamda ishlatadigan “*hay*” iborasini yevropaliklar “*ha*” mazmunida tarjima qilishadi. Shuningdek, o`zbek tilidagi “*xay*”, “*xo`p*” iboralari ham tasdiq, rizolik mazmunida qabul qilinadi. Aslida, ushbu iboralarni qo`llayotgan yapon ham, o`zbek ham to`g`ridan to`g`ri rozilikni bildirayotgani yo`q; u “*Sizni tingladim va tushundim, endi qanday javob berishni va nima qilishni o`ylab ko`raman*” demoqchi [16].

Umuman, kommunikativ maqsad – intensiyani botiniy, yashirin holda yoki bavosita ifoda etish barcha millatlarga xosdir. Lekin bilvosita nutqiy aktlarning tasnifiy guruhlari va ularni ifodalovchi lisoniy shakllar qatori turli tillarda bir xil ko`rinishga ega bo`la olmaydi. Masalan, fransuz maqtov, tahsin izhor etishi uchun panjasining uchini o`pib qo`ysa yetarli. Inglizlar mazmunni bilvosita ifodalashda ko`pincha so`roq shakllariga murojaat qiladilar. O`zbeklar nutqida iltimosni ifodalashda savol shakllaridan kamroq foydalaniladi. Turli millat vakillarining sergaplik darajasi ham bir xil emas, ko`p gapirishdan turli maqsad ko`zlanishi mumkin. Markaziy Osiyo xalqlariga “*Ahvolingiz qanday?*”, “*Uy ichi, bola-chaqa tinch-omonmi?*” savollari bilan murojaat qilinganda, “*Xudoga shukur!*” javobini olishning o`zi yetarli. Xuddi shu savolni anglosaksonlarga bersangiz, ularni hayron qoldirishingiz va umuman javob olmasligingiz mumkin. Olmonlar esa batafsil javobga tayyor turishadi, ulardan hatto, o`z tana a`zolarining qay ahvolda ekani haqida ham ma'lumot olish mumkin [16].

Insoniyat uchun umumiyligi bo`lgan tushunchalar, konseptlar mavjudligini bilamiz. Bular qatoriga masalalan, zamon va makondan tashqari, haqiqat, yolg`on, sevgi, burch,adolat, hurmat, qasd, g`azab kabilalar kiradi. Bunday konseptlar barcha xalqlar uchun qanchalik umumiyligi bo`lmisin, ammo har bir xalq ularning mazmunini o`zicha tasavvur etadi va talqin qiladi. Binobarin, shved va o`zbek “*sha'n*” so`zini bir xilda tushunmaydi, xitoy va ingliz uchun “*burch*” bir xil ma`no anglatmaydi. Umumiyligi tushunchalar talqinidagi bunday nomuvofiqliklar madaniyatlararo muloqotda turli noqulayliklar tug`diradi. Inglizlar va nemislar tarixan bir urug`dan tarqalishgan. Ularning tillari qon-qarindosh, lekin shu millatlar ham umumiyligi tushunchalarni turlicha idrok etishadi va turli shakllarda ifodalashadi.

Milliy-madaniy xususiyatdagi axborot lisoniy, psixologik, ijtimoiy axborot bilan hamjihatlikda kommunikativ-pragmatik maydonni tashkil qiladi va nutqiy muloqot faoliyati shu maydon doirasida kechadi. Bu turdagisi axborot jamlanmasi kommunikantlarning muloqot qoidalarini bilish darajasini belgilaydi. Xuddi shu axborotlar u yoki bu turdagisi lisoniy tuzilmalarning biror bir aniq muloqot kontekstiga, muhitiga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Demak, pragmalingvistika, dastavval pragmatik mazmunning madaniyatlararo, tillararo qanchalik darajada mos kelishi va ushbu mazmunni tarkib toptiruvchi omillarning kommunikativ-pragmatik maydondagi harakat miqyosi haqidagi ma'lumotlarni yig`ish bilan shug`ullanishi lozim. Bunday yo`nalishdagi tahlil tillararo pragmalingvistik tadqiqotlarning vazifasidir.

### **Bob bo`yicha xulosalar**

Shaxsning obyektiv olamdagи barcha ijtimoiy harakatlari nutqiy faoliyatida o`z ifodasini topadi. Pragmatik lingvistika fanning nazariy va amaliy tarmog`i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o`zida mujassamlashtirgan nutqiy muloqot, muloqot sistemasi, nutqiy vaziyat, nutqiy muloqot ishtirokchilariga xos xattiharakat, kommunikativ maqsad bilan aloqador masalalarni o`rganadi.

Ma'lumki, insoniyat uchun umumiylar bo`lgan tushuncha va konseptlar mavjud. Bu siraga zamon va makon, haqiqat, yolg`on, sevgi, burch,adolat, hurmat, qasd, g`azab (va h-zo) kabilar kiradi. Bunday konseptlar barcha xalqlar uchun qanchalik umumiylar bo`lmashin, ammo har bir xalq ularning mazmunini o`zicha tasavvur etadi va talqin qiladi. Umumiylar tushunchalar talqinidagi bunday nomuvofiqliklar madaniyatlararo muloqotda turli noqulayliklar tug`diradi. Chunki tarixan bir urug`dan tarqalgan qarindosh tillarda ham umumiylar tushunchalar turlicha idrok etiladi va o`ziga xos shakllarda ifodalanadi.

Lisonning inson tajribasi va faoliyatida tutgan o`rni bilan qiziqqan sohapragsmalingvistika til va uning vositasida bajariladigan muloqot faoliyatining xususiyatlari haqidagi bilimning miqdoran kengayishi, boyishi uchun xizmat qiladi. Pragmalingvistika tilshunoslikning jadal rivojlanayotgan tarmog`idir. Etnopragmatika, sotsiopragmatika, etnosotsiopragmatika, madaniyatlararo pragmatika, qiyosiy pragmatika kabilar uning taraqqiyotini belgilaydi. Bu sohalarning rivoji fanning yangi nazariy g`oyalar va metodlar bilan boyitilishiga imkon beradi. Hozirgi kunda pragmalingvistika millatlararo, xalqaro munosabatlar sohalaridagi muloqot ko`nikma-malakalarini o`stirishga ham amaliy yordam bermoqda. Shuning uchun pragmalingvistika lisoniy faoliyatni ilmiy-amaliy tadqiq etishning istiqbolli yo`nalishi sifatida tilshunoslikda muhim o`rin egallaydi.

### **III bob. So`roq gaplar muloqot birligi sifatida**

#### **3.1. So`roq gaplarning pragmatik vaziyat bilan bog`liq xususiyatlari**

Lisoniy faoliyatda voqelik haqida axborot jamlanib, bu axborot adresatga uzatiladi (aniqrog`i, axborot almashinushi harakatlari bajariladi). Axborot jamlash lingvokognitiv jarayon bo`lib, bu jarayonda inson ongida idrok qilinayotgan voqelikning “lisoniy qiyofasi”, obrazi shakllanadi. Borliq lisoniy qiyofasining shakllanishi oddiy jarayon emas, zero, tafakkur faoliyatining o`zi ham ko`p bosqichli bo`lganidek, yaratilgan konseptning lisoniy voqelanishi ham murakkab faoliyat natijasidir. Birgina konseptning shakllanish sharoitini olaylik: bu sharoitda ko`rish, his etish, tasavvur qilishdan boshlangan faoliyat obraz yaratilishi, tushuncha hosil bo`lishi kabi konseptual harakatlar majmuasi bilan boyib boradi. Bundan tashqari, bu majmua idrok etuvchi shaxsga xos bo`lgan individual belgilar hamda milliy-etnik ko`rsatkichlarni ham qamrab olishi aniq.

Ma'lumki, kommunikatsiya axborot almashinushi faoliyatidir. Bu faoliyatni ta'minlovchi asosiy vosita lisoniy belgilardir. Kommunikatsiyaning samaradorligi esa bu belgilarning barcha uchun umumiyligi bilan ta'minlanadi. Lekin bu umumiylilik qanday yuzaga keladi va qanday o`zgarishlarga uchraydi? Bu borada Anna Vejbitska qo`llagan “semantik primitiv” tushunchasiga diqqatni qaratamiz. “Semantik primitiv”lar voqeal-predmetlar idrokining ibtidosi bo`lib, ularning birikishi natijasida oddiy va murakkab konseptlar hosil bo`ladi [16]. Umumiylilik, asosan, shu oddiy, dastlabki konseptual birliklarga xosdir. Ularning turli birikishlaridan hosil bo`ladigan murakkab konseptlar esa umumiyligidan uzoqlashib, xususiylikka yaqinlashadi. Bunday xususiylik idioetnik, ya`ni milliy-madaniy mazmun kasb etadi.

Konseptual faoliyatga xos bo`lgan ushbu milliy-madaniy mazmun muloqot tizimida o`z aksini topmay qolmaydi. Voqelik idroki natijasida hosil bo`ladigan konsept freym tuzilishida, ya`ni qolip asosida voqelashadi. Freym borliqning idrok etish modeli sifatida turli mantiqiy-ruhiy assotsiatsiyalar asosida shakllanadi. Freym o`ziga xos mantiqiy faoliyat zanjiri sifatida turli tugun, bandlardan tarkib topadi. Bu tugun va bandlarning har biri maxsus vazifani bajaradi. Ana shunday

vazifalardan biri milliy-madaniy mazmunni ifodalashdir. Freym assotsiativ idrok qolipi sifatida qaralsa, bunday mantiqiy tafakkur obrazlarining ko`pchilik qismi milliy-madaniylik xususiyatiga ega bo`lishini ham unutmaslik kerak. Chunki nutqiy muloqot qoidalarida madaniy qadriyatlar va ularning munosabatlaridagi farqlar o`z aksini topadi. Bu farqlar ichki va tizimiylar xarakterga ega bo`lib, muloqot qoidalari, aslida, “madaniy qoidalar” ichki tizimining tashqi ifodasidir [16]. Nutqiy muloqotda madaniyatga xos ko`rsatmalarni aks ettiruvchi “madaniy ssenariy”larni aniqlash va qiyoslash muayyan jamoa yoki millatga xos bo`lgan muloqot faoliyati uslublari va vositalarini bilish uchun muhim hisoblanadi.

Muloqot matnining tarkib topishi nutqiy faoliyatning konseptual bosqichida kommunikativ maqsadga mos freymning shakllanishiga bog`liq bo`ladi. Chunki so`rash, taklif qilish, ogohlantirish, talab qilish, ma'lum qilish kabi illokutiv maqsad qo`yilgan nutqiy harakatlarni voqelantiruvchi freymlar muloqot yo`nalishini belgilaydi. Konseptual tuzilma – freym muloqotning muayyan ko`rinishida o`z lisoniy ifodasini topadi. Bunda diskursiv bosqich birliklarining konseptual tuzilmalar uchun “ustqurma qobiq” vazifasini o`tashi ayonlashadi.

Axborot almashinuvining mazmuniy negizini tashkil etuvchi konseptual tuzilma – freym turli pragmatik vaziyatlar (milliy-madaniy muhit) bilan bog`liq holda yuzaga chiqadi. Shunday ekan, ushbu bobda konseptual tuzilma – freymlarni voqelantiruvchi muloqot jarayonida so`roq gaplarning pragmatik vazifasi tahlil qilinadi.

Muloqot faoliyatdagi nutq mahsuli bo`lib, uni jonli ifodalash va bevosita ko`rsatish imkoniyatining cheklanganligi tufayli badiiy asarlarda mavjud muloqot ko`rinishlaridan foydalanamiz. Badiiy asar jonli muloqot jarayonini butun dinamikasi bilan aks ettirmasa ham, nutqiy faoliyatning muayyan statik ifodasi moddiylashgan diskursga oid faktik materialga boyligi bilan imkon bera oladi.

Chunonchi, Shukur Xolmirzayevning “O’n sakkizga kirmagan kim bor” qissasida (T., 2015) qahramonlar muloqotida yuzaga chiqqan so`roq gaplar qanday pragmatik vazifa bajarishini kuzatdik.

So`roq gaplar nutqiy muloqotda pragmatik vaziyat talabiga ko`ra voqelashadi va kommunikantlarning madaniy saviyasi, xarakteri, his-tuyg`ulari, emotsional bahosi, yosh xususiyatlari, voqelikka munosabatini aks ettiradi.

“Bolalar, qizlar navbat bilan yaxmalak otishar, faqat Umidagina bir chetda hovuchini og`ziga tutib, og`ir-ogi`r nafas olib turardi. Tilovni ko`rdi-yu, qaqillab kului.

- **Siz nega o`ynamaysiz, Tilov?** Xudo ursin, cholga o`xshaysiz.
- Bo`lmasam kampirga uylanasiz.
- Bu mening ishim.
- Bo`ldi endi. Buncha kekkaymang. – Umida sirpanib kelib, Tilovning tirsagidan ushladi. – Yuring. **Mendan xafasiz-a?**

- **Nega?**
- Xafa bo`lmang, Tixon, -dedi Umida iyagini oldinga chiqarib.  
Yo`lda Tilov Jamshiddan so`radi:
- **Tixon nima degani?**
- Tixon? Tixon – Ostrovskiy pyesasidagi qahramon. Katerinaning eri. **Umida sizni Tixon dedimi?**

- Ha.
- Siz, Katerinam bo`l, demabsiz-da. Tilov indamadi” [48, 46].

Badiiy asardagi ushbu parcha yoshlarning, ya’ni Umida, Tilov va Jamshidlar muloqotida yuzaga chiqqan xarakter xususiyatlarini anglashga yordam beradi. Umidaning bir chetda hovuchini og`ziga tutib, og`ir-ogi`r nafas olib turgan bo`lsa ham, o`zini qiziqtirgan yigitni ko`rib qaqillab kulishi kommunikantning ruhiy holatini aniqlashtirib beradi. Qizning bu holatga tushish sababi Tilovga bergen savolida ayonlashadi. Umida Tilovga befarq emas. Yigitning e’tiborini tortish maqsadida “*Siz nega o`ynamaysiz, Tilov?*”-deb so`raydi.

Ammo muloqotda reallashgan so`roq gaplar bir nechta: “*Mendan xafasiz-a?*” (Umidaga tegishli), “*Nega?*” va “*Tixon nima degani?*” (Tilovga tegishli), “*Umida sizni Tixon dedimi?*” (Jamshidga tegishli). Ular turli pragmatik mazmunni ifodalaydi:

1. Umida tomonidan aytilgan “*Mendan xafasiz-a?*” gapi so`roq mazmunini emas, balki “*xafa bo`lmaslik*” istagini ifodalab kelgan.

2. “*Nega?*” so`ro`q gapi to`liq shakllanmagan bo`lsa ham (aslida, to`liq shakli “*Nega xafa bo`lay?*” yoki “*Nega xafa bo`lishim kerak?*” tarzida bo`lishi kerak), Tilovning, odatdagidek, noma'lum narsani aniqlashtirishga bo`lgan qiziqishini emas, adresant murojaatiga ijobiy mazmundagi “*xafa emaslik*” munosabatini anglatadi. Bu “*Xafa emasman*” yoki “*Xafa bo`lganim yo`q*” ko`rinishlaridagi darak gaplar orqali ifodalanishi ham mumkin.

3. “*Tixon nima degani?*” so`ro`q gapida Tilov uchun noma'lum narsa yoxud shaxs haqida ma'lumot olish mazmuni mujassam.

4. Jamshidning “*Umida sizni Tixon dedimi?*” degan gapi vaziyatni aniqlashtirish va tasdiqlab olish mazmunini bildiradi.

Ma'lum bo`ladiki, so`roq gaplarning muloqotda qo`llanilishi ularning grammatik tabiatidan farqli turli xil pragmatik mazmun va vazifa kasb etganligidan dalolat beradi. Muloqot kechgan nutqiy vaziyat bunda muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, muloqot yuzaga kelgan nutqiy vaziyat lisoniy birliklar tanlanishiga ta'sir qiladi. Yuqoridagi diskurs yoshlarning muloqoti o`yin vaziyatida yuzaga chiqqanligini va bu pragmatik vaziyat o`yinga tortish, e'tiborni jalg etish, istakni ifodalash, ma'lumot olish va tasdiqlash kabi pragmatik mazmundagi so`roq gaplarning shakllanishiga sabab bo`lganligini ko`rsatadi.

Sh.Xolmirzayevning “Tabassum” hikoyasida so`roq gaplar qo`llangan quyidagi muloqot diqqatimizni tortdi:

“Shunda oldidan bir kiyik chiqib qoldi. Keyin bir ovchi ko`rindi. Kiyik Jalildan hurkib, ovchiga burildi. U otib oldi. Jalil chopib borib, kiyikning oyog`ini bosib turdi. Ovchi so`yib halolladi. Keyin Jalil:

- **Og`a, bizdan hurkib sizga yo`liqdi, tanimizni bermaysizmi?-dedi.**
- **Kimsan o`zing?**
- **Bu dunyoda otasi o`lman kim bor, onasi o`lman kim bor?**
- **Kimsan? Kimlardan bo`lasan? Nima qilib yuribsan?**

– Tagi yetimman, og`a... Lekin otamiz beli baquvvat odam o`tgan. Undan besh-o`nta ushoq mol bir cho`ponning qo`lida qolgan deb eshitar edim... Mana, fursati yetdi deb shuni qidirib chiqdim. Topsam, insof qilsa...

– **Bosmachilar yeb ketgan bo`lsa-chi?**

– Teshib chiqsin.

– **Qizillar yegan bo`lsa-chi?**

– Og`a, yetimning haqiga kim ko`z olaytirsa, topadi...

– **Oti nima ekan u cho`ponning?**

– Shuni bilmayman-da... Bir cho`pon deyishdi. Otam o`lim oldida tildan qolgan edi.

– **Shuni izlab yuribsan?”** [49, 119]

Muloqot ishtirokchilari tomonidan hosil qilingan so`roq gaplar o`nta, lekin ularning pragmatik xususiyatlari ham shunday miqdoriy ko`rsatkichga egami? Bu muloqotda so`roq gaplar bajargan vazifalarni aniqlash natijasida ma'lum bo`ladi.

– *Og`a, bizdan hurkib sizga yo`liqdi, tanimizni bermaysizmi?* Mazkur gap o`ljaning bir ulushini talab qilish mazmuniga ega. Boshqacha aytganda, sintaktik jihatdan “Tanimizni/ haqimizni/ ulushimizni bering” shaklidagi darak gapga teng. Shuningdek, bu gapda buyruq mazmuni mavjud.

– *Kimsan o`zing?* Bu so`roq gapda o`z tani(haqi)ni talab qilayotgan kishi shaxsini aniqlash va uning talab qilishga haqi bor yoki yo`qligiga ishora qilish mazmuni ifodalangan.

– *Bu dunyoda otasi o`lmagan kim bor, onasi o`lmagan kim bor?* Savolga savol bilan javob berish usuli orqali kommunikantning ota-onasi vafot etganligi, ya`ni yetim ekanligi haqida xabar berish, ma'lumot yetkazish mazmuni ushbu gapda aks etgan. Shu jihatdan bu gap darak gapga teng. Chunki ”Hamma ota-onasizlar kabi, men ham yetimman” mazmuni muloqotda ritorik so`roq orqali ifodalananib, darak gapga nisbatan pragmatik imkoniyatlari kengligini tasdiqlaydi. Ko`rinadiki, pragmatik vaziyat axborotni ifodalash uchun tagma`noli so`roq gapga, ayni holatda ritorik so`roq gapga ”ustunlik” bergen.

– *Kimsan? Kimlardan bo`lasan? Nima qilib yuribsan?* Bir-biriga mantiqan bog`langan uchta so`roq gapda adresant haqida to`liq ma'lumotga ega bo`lish, ya`ni uning shaxsini – kasb-kori, nasl-u nasabi, maqsadini aniqlashtirib olish mazmuni ifodalangan. Bu kabi so`roq gaplar ov jarayonida tanishuv vaziyati tufayli yuzaga kelgan. Odatda, tanishuv vaziyatida bunday savollar noan'anaviy tuyulsa-da, tog`da, ov qilish paytida duch kelgan notanish kishiga nisbatan o`rinlidir. Ayni zamonda, tayyor o`ljaga sheriklik da`vo qilgan kimsadan norozilik hamda bu kimsaning “o`ljadan ulush olish” maqsadiga shubha bilan qarash sababli adresant savollari keskin va qo`pol tus olgan.

– *Bosmachilar yeb ketgan bo`lsa-chi?* gapi adresatning niyatini bilish va undan kelib chiqadigan harakatga undashni ifodalaydi. So`roq gapning to`liq *Bosmachilar yeb ketgan bo`lsa, nima qilasan?* shakli esa maqsad va harakat natijasini aniqlashga qaratiladi.

– *Qizillar yegan bo`lsa-chi?* Bu gapda ham adresatning niyatini – “agar qo`ylarni qizil askarlar yegan bo`lsa, qanday yo`l tutishi”ni aniqlashtirish mazmuni aks etgan.

– *Oti nima ekan u cho`ponning?* Ushbu gap orqali chin yoki yolg`on so`zlayotganlikni aniqlash, adresatga ishonch bildirmaslik, gumonsirash mazmuni anglashiladi.

– *Shuni izlab yuribsan?* Adresantning bu gapida esa gumonni tasdiqlash, ya`ni “nahotki shuni izlab yuribsan?”, “ehtimol, boshqa narsani izlayotgandirsan?”, “aslida, maqsading cho`ponni izlash emas” mazmunidagi shubha, gumon va mantiqiy inkor o`z ifodasini topgan.

So`roq gaplarga xos pragmatik xususiyatlarni nutqiy muloqotning boshqa ko`rinishlari misolida ham kuzatish mumkin. A.Qahhorning o`zbek adabiyotida alohida o`rin egallagan “Sarob” romanidagi qahramonlar muloqotini ko`zdan kechiraylik:

“Qiz nihoyat uning so`zini yerga tashlamay, eshik tomon yo`naldi va eshikning qabzasidan ushlab Saidiyga qaradi; chap qo`lini po`killab turgan yuragi ustiga qo`yib, labini tishladi.

– **Kiraymi, a?** Ketmay turing...

Qiz bu so`zni o`ylamasdan aytdi. Saidiy ham bunga bir ma’no berishdan ojiz edi” [50, 35].

Diskursda holati “...eshikning qabzasidan ushlab Saidiya qaradi; chap qo`lini po`killab turgan yuragi ustiga qo`yib, labini tishladi” kabi jumlalarda aks etgan qiz-Munisxon. Qizning ruhiy holati “Kiraymi, a? Ketmay turing...” birliklarining yuzaga chiqishiga sabab bo`lgan. Shuning uchun “Kiraymi, a?” gapi so`roq mazmuniga qaraganda ko`proq ikkilish, qo`rquv va hayajon mazmunini ifodalaydi.

Demak, so`roq gap muloqot birligi sifatida faqat so`roq mazmuninigina ifodalamaydi. Yuqorida tahlil qilganimizdek, nutqiy pragmatik vaziyat va shaxs ruhiy holatidan kelib chiqadigan turli mazmun qirralari tufayli mazmun mundarijasini kengaytirib boradi.

“– Qancha shohona shiypon soldirganingda ham o`sha shiyonda o`zing poygakda o`tirib, to`rda yonboshlab yotgan amiringga choy quyib berasan-da!..

– Arzisa, mayli-da... Saidiy “ iye, ana gapirmoqchi” deb o`yladi.

– **Bordi-yu, arzimasa, to`rga seni o`tqizsa-chi?**

– Uning gashti yo`q!

– **Basharti?**

– **Sen shunday qilarmiding?**

Saidiy bir og`iz ham so`z aytolmadi, ammo butun vujudi “ha” deb turar edi” [50, 59].

Saidiy va Munisxon muloqotidagi pragmatik vaziyat yigit va qizning o`zaro munosabati, nozik hislari ifodalangan so`roq gaplar shakllanishiga sabab bo`lgan. Adresantning *Bordi-yu, arzimasa, to`rga seni o`tqizsa-chi?* gapi qizning munosabatini aniqlashtirish uchun qulay imkon sifatida paydo bo`lgan nutqiy vaziyatda hosil bo`lgan. Unda adresat tuyg`ularining jiddiyligini sinash va taxmin qilish mazmuni ifodalangan. Diskursdan ma’lumki, so`roq gaplarning pragmatik vazifasi emotsional-ekspressiv vositalar hisobiga kuchaygan: *Bordi-yu... Basharti?*

Shart semasi birlashtirgan yuklamalar so`roq gaplarning nutq vaziyati talab qilgan shart mazmunining shakllanishi va hissiy ta'sirini ta'minlagan. Demak, pragmatik vaziyatga qarab, so`roq gaplar oldin kuzatilgan xususiyatlaridan tashqari taxmin, sinash va shart ma'nolarini ifodalab, pragmatik maydon birligiga aylanadi.

Ta'kidlash joizki, so`roq gaplar ko`p hollarda so`rashuv vaziyatida yuzaga chiqadi va muloqotni shakllantiradi. Masalan:

“Birodarlar, uchastka militsionerimiz odam bo`lib qoldi!

Ha, odam bo`lib muomala qildi, odam bo`lib gapirdi.

- **Qanday, jiyanlar katta bo`lyaptimi, suyaklar yengilmi, aka?..-dedi.**
- Shukur, shukur, -dedim.
- Ikki marta kelib ketdim...
- Ayolimiz aytdi, yo`qladi,- dedi” [46, 202].

Ushbu diskursda so`roq gap so`rashish vaziyatida yuzaga kelgan. *Qanday, jiyanlar katta bo`lyaptimi, suyaklar yengilmi, aka?* gapida milliy-madaniy kompetensiyaga xos xususiyatlar ifodalangan. Adresant o`zbekona so`rashuv vaziyatida qo`llaniladigan shaklan so`roq, mazmunan hol-ahvolni aniqlashga qaratilgan gaplardan foydalangan. Aslida, “*Qanday?*”(1), “...*jiyanlar katta bo`lyaptimi?*”(2), “...*suyaklar yengilmi, aka?*”(3) kabi uchta alohida gapdan iborat muloqot birligi bitta so`roq gapni shakllantirgan. Bularning har biri alohida qo`llanila oladi va muloqotda so`rashuv vaziyatining milliy-madaniy tabiatini ifodalaydi. Masalan: “*Qanday?*” birligini olaylik. So`roq olmoshi bilan shakllangan to`liqsiz gap bo`lsa ham, bu birlik muloqotda kommunikantlar uchun tushunarli bo`lgan ”*Ahvolingiz qanday?/ Ishlar qanday?/ Uydagilar qanday?*” mazmunini anglatadi. Ehtimol, so`rashuv vaziyatida milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi ”*Qanday?/Qalay?/Qandaysiz?/Qanaqasiz?*” kabi so`roq gaplarning ko`proq qo`llanilishi va nutqiy aktda yuzaga kelishi shu sababbdandir. *Qanday, jiyanlar katta bo`lyaptimi, suyaklar yengilmi, aka?* gapi o`zbek millatiga xos salomlashuv, so`rashuv vaziyatlarida shaklan so`roq, ammo mazmunan hol so`rash, hurmat bildirish va e'tibor qaratishni ifodalovchi birlik sifatida milliy madaniyat va hurmat tamoyilini o`zida aks ettiradi. Tahlil qilinayotgan muloqot

surxondaryolik o`zbeklarning hududiy tili va madaniyatini aks ettiradi. Buni so`roq gapning oxiridagi "...*suyaklar yengilmi, aka?*" qismi yaqqol ko`rsatadi. Chunki buxorolik yoki toshkentlik o`zbeklar muloqotida so`rashuv yoki salomlashuv vaziyatlarida bunday ifodani uchratmaymiz. Qiyoslang:

Buxorolik o`zbeklar muloqotida: – **Qanaysiz? Sog`-salomatmisiz?**  
**Bachchalar yaxshimi?** – Xudoga shukur, rahmat.

Toshkentlik o`zbeklar muloqotida: – **Qanaqasiz? Uydigila yaxshimi?**

– Yaxshiman, rahmat. – **O`ziz qanaqa? Hammasi joyidami?..**

Demak, milliy-madaniy an'analar, urf-odatlar barcha millatlarda bo`lganidek, o`zbeklar nutqiy muloqotida ham o`z aksini topmasdan qolmaydi. Ayniqsa, muloqotning shakllanishida muloqot ishtirokchilari mansub bo`lgan hudud tili, ya`ni sheva, etnografik, mental xususiyatlar sezilarli ta`sir o`tkazadi. Shunga ko`ra, o`zbeklar nutqiy muloqotini o`zbek tilining arealiga, tarqalish hududiga ko`ra farqli jihatlarini alohida tadqiq etish ehtiyoji bor. Bu lingvistik pragmatika uchun dolzarb bo`lib, nutqiy muloqotda o`zbek tilining hududiy mental xususiyliklar bilan milliy-madaniy kompetensianing mushtarak va o`ziga xos jihatlarini o`rganishga imkon beradi. Chunki bir hududda *suyaklarning yengillagini* bilish ostida qanday etnik yoki etnografik hodisa yashirinligini, shuningdek, so`rashuv jarayonida yelkani qoqib qo`yish, qo`lni ko`ksiga qo`yish, quchoqlashib yoki o`pishib ko`rishish kabi bir qancha odatlarning kelib chiqish va ularga amal qilish sabablarini, hududiy va gender farqlanishini aniqlash o`zbek milliy madaniyatining taraqqiyotini, jumladan, muomala va nutqiy muloqotda madaniy saviyani belgilashga yordam beradi.

So`roq gaplar yana qanday pragmatik mazmun ifodalaydi? Buni aniqlash maqsadi quyidagi nutqiy muloqotga diqqatimizni qaratdi:

“Qalin o`sma qo`ygan baqaloq xotin G`oziddin kirib kelishi bilan, “mehmon borm?” deb so`rab, darrov choy damlaganicha, dasturxon tuzadi. Sanamjon ham kelgach, u xuddi mehmonxona bekasidek, yaxshi dam olinglar, deb qo`yib, eshigi yuzma-yuz kvartiraga chiqib ketdi.

– **Choy ichasizmi?** – o`zi choy ichayotib, Sanamjondan so`radi G`oziddin.

– Yo`q, – boshini chayqadi divanning bir chetiga xomush o`rnashgan Sanamjon” [47, 210].

Anglashiladiki, kommunikantlar muloqotida birgina so`roq gap ishlatilgan. *Choy ichasizmi?* gapi odatdagи so`roq mazmunini ifodalamaydi. Aksincha, bu gap muloqotda taklif qilish mazmuniga ega bo`lgan pragmatik birlik sifatida voqelashgan. Chunki bu gapni aytishdan maqsad “choy ichish istagi bor yoki yo`qligini bilish” emas, balki birgalikda choy ichishga taklif, manziratni ifodalash, ayni vaziyatda o`ziga befarq bo`lmagan hamsuhbat – ayolga e’tibor qaratish, umuman, hurmat ramzi desak, adashmaymiz.

Boshqa bir nutqiy aktda “choy ichish” harakati bilan bog`liq so`roq gapning mazmuni oldingi muloqotda voqelashgan pragmatik mazmundan farq qiladi:

“Haqnazarov xuddi jin chalgamek indamay uning yonidan o`tib, ichkari xonaga kirdi. Yumshoq kresloga vazmin cho`kdi.

– **Sovuq choying yo`qmi, qizim?** - so`radi u yotog`idan ko`zlarin ishqab chiqqan Noiladan. Noila choy ko`tarib kelgach, ikki piyola bosim ichdi. Keyin qiziga: – Sen bor, dampingni olaver, men hozir ketaman, - dedi” [52, 215].

Muloqot yaqin qarindoshlik munosabati bilan bog`langan kommunikantlar orasida yuzaga kelgan. Shaxs omiliga xos bu xususiyatlar muloqotdagи gaplar mazmunini anglashga yordam beradi. Zero, shaxs omili muloqot kechishini ta’minlaydigan, ayniqsa, kommunikativ intensiyani belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi. Chunki ota farzandidan (bu muloqotda qizidan) va farzand otasidan (boshqa holatda onasidan) so`rashi mumkin bo`lgan narsalar va masalalar haqidagi ma’lumot (axborot) mazmunida ortiqcha takalluf, mulozamat yoki xushomad belgisining bo`lishi g`ayritabiyyidir. Shuning uchun biz tahlil qilayotgan nutqiy muloqotda *Sovuq choying yo`qmi, qizim?* birligi oddiy tasdiq yoki inkorni talab qiladigan so`roq gap ekanligi ma’lum. Chunki muloqotda bu gap “sovuq choy bor yoki yo`qligini aniqlash” maqsadida qo’llanilgan. Otaning qiziga bu murojaatida hech qanday qo’shimcha ma’no kuzatilmaydi. Bu muloqotda so`roq gap o`z lisoniy tabiatiga mos vazifa bajarganligini pragmatik vaziyatga aniqlik kirituvchi “Noila choy ko`tarib kelgach, ikki piyola bosim ichdi” jumlesi orqali tushunish mumkin.

### **3.2. So`roq gaplar va kommunikativ intensiya**

Nutqiy muloqotda so`roq gaplarning miqdoran ko`p qo`llanilishiga va mazmunan o`zgarishiga nafaqat pragmatik vaziyat, balki muloqot ishtirokchilarining kommunikativ intensiyasi (maqsadi) ham o`z ta'sirini o`tkazadi. Takror keltirilgan bo`lsa ham, quyidagi muloqot kommunikativ intensiyaning so`roq gaplarga ta'sirini tahlil qilishga yordam beradi:

- “ – **Siz nega o`ynamaysiz, Tilov?** Xudo ursin, cholga o`xshaysiz.
- Bo`lmasam kampirga uylanasiz.
- Bu mening ishim.
- Bo`ldi endi. Buncha kekkaymang. – Umida sirpanib kelib, Tilovning tirsagidan ushladi. – Yuring. **Mendan xafasiz-a?**
- **Nega?**
- Xafa bo`lmang, Tixon, -dedi Umida iyagini oldinga chiqarib. Yo`lda Tilov Jamshiddan so`radi:
- **Tixon nima degani?**
- Tixon? Tixon – Ostrovskiy pyesasidagi qahramon. Katerinaning eri.

#### **Umida sizni Tixon dedimi?**

- Ha.
- Siz, Katerinam bo`l, demabsiz-da. Tilov indamadi” [48, 46].

Muloqotda yashirin pragmatik intensiya Jamshidning savoli, ya’ni “*Umida sizni Tixon dedimi?*” so`roq gapi orqali oydinlashtiriladi. Muloqot intensiyasi Jamshidning Tilovga aytgan “*Siz, Katerinam bo`l, demabsiz-da*” gapi orqali ochib beriladi. Ko`rinadiki, Tilov Umidani sevishi yoki sevmasligini aniqlashga qaratilgan so`roq gaplar muloqotning yashirin intensiyasini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, muloqot ishtirokchilarining yosh xususiyatlari, ayni sevish va sevilish yoshiga xos ruhiy holatlar va ularning gender tabiatini asar personajlari (Umida va Tilov) misolida anglash imkoniyati yuzaga chiqadi. Umidaning xarakterida o`zbek qizlariga xos samimiylilik, sho`xlik, o`z munosabatini ochiq-oydin bildirmay “parda”lab gapirish, ayni paytda, intellektual darajasini namoyon qilish kabi xususiyatlar borligi ma’lum bo`ladi. O`z ichki kechinmalarini yashirish, his-tuyg`ularini oshkora qilmaslik, vazminlik va oriyatlilik ko`proq yigitlarga, to`porilik esa yigitlarning ayrim toifasiga xosligi Tilov qiyofasida gavdalanadi. Ammo Jamshid – muloqotdagi yashirin maqsadni ochib beruvchi shaxs. Bu yigit N.Ostrovskiy pyesasini o`qiganligi bois *Tixon nima*

*degani?* savoliga javob topadi va Tilovga nisbatan intellektual darajasi baland ekanligi anglashiladi. Demak, badiiy asarda o`zbek yoshlarining xarakter xususiyatlari personajlar uchligi munosabatida, aynan Umida, Tilov va Jamshidlar muloqotida ko`rsatilgan. Bu muloqotda so`roq gaplar kommunikativ intensiya bilan bog`liq pragmatik xususiyatlarini reallashtirgan.

So`roq gaplar boshqa nutqiy vaziyatlarda ham kommunikativ intensiyani yuzaga chiqara oladi. Chunonchi:

”Kapitan katta:

– Tur, tur deyman!-deya baqirib berdi.

Bo`zbola qo`llarini qovushtirib qotib qoldi.

– **Manavi odamni taniysanmi?!**-dedi kapitan katta” [46, 203].

Bevosita rasmiy so`roq vaziyatida *Manavi odamni taniysanmi?!* gapi voqelashgan. Muloqotda bu so`roq gap tasdiq yoxud inkorni talab qiladi. Shunga ko`ra, diskursda quyidagi birliklar yuzaga chiqqan:

”Bo`zbolalar men tarafga sigir qarash qildi.

– Tanimaymiz, -dedi.

Kapitan katta menga yuzlandi.

– **Shularmi?**-dedi.

– Shular, ha, shular,-dedim” [46, 203].

Tabiiyki, adresantning keyingi ”*Shularmi?*” gapi ham tasdiq yoki inkorni talab qilishi adresatning ”*Shular, ha, shular*” javobidan anglashiladi. Mazkur so`roq gaplar so`roq jarayonida adresant ko`zlagan maqsadni ochiq ifodalamaydi. Aybdorlarni aniqlash maqsadi muloqot ishtirokchilariga berilgan savollarning konseptual asosida yashirin. Kommunikativ maqsadning oshkora ifodasi gumondorlarni cho`chitishi tayin. Shuning uchun adresant nutqida va tanlagan gaplarida intensiya yashirin bo`lishi maqsadga muvofiq.

So`roq gaplarda kommunikativ intensyaning ifodalanishini ”Ot kishnagan oqshom” qissasidan tanlangan quyidagi diskurs misolida kuzataylik:

”Bir katta Rahmon birodarimni so`roqqa tutdi:

– **Ayting-chi, nega voyaga yetmagan bolani urdingiz?**

- Organim yo`q, kalla qildim, -dedi Rahmon birodarimiz.
- Baribir, urgan hisoblanadi. Yuzida jarohat bor. Pulingizni o`g`irlagan ekan, yana tag`in ushlab olibsiz ekan, militsiyaga topshirish kerak edi!
- Kuchim yetmadi.
- **Urishga yetgan kuchingiz militsiyaga yetaklab borishga yetmadimi?**
- **Uch birday yigitga qanday qilib kuchim yetadi?”** [46, 208]

Muloqotda *Ayting-chi, nega voyaga yetmagan bolani urdingiz?* so`roq gapi adresatning harakatni amalga oshirganligini tasdiqlashi yoki inkor etishini aniqlash maqsadida yuzaga kelgan. Muloqotda adresat – Rahmonning *Uorganim yo`q, kalla qildim* gapi ushbu so`roq gapning javobi bo`lib, kommunikativ intensiyani oydinlashtiradi.

Muloqotdagi boshqa so`roq gaplarda kommunikativ maqsad qanday ifodalangan? Buni aniqlash uchun tahlilni davom ettiramiz. Kapitan nutqidagi *Urishga yetgan kuchingiz militsiyaga yetaklab borishga yetmadimi?* gapi ish-harakatning noo`rinligini ta`kidlash va uning boshqa variantini taklif qilish mazmuniga ega. Bunda adresant o`z maqsadini ochiq-oydin bildirgan. Ushbu so`roq gapdan anglashilayotgan qonuniy to`g`ri yo`l tutishga da`vat qilish, sodir etilgan harakatning noto`g`ri ekanligini ta`kidlash mazmuni ham buni tasdiqlab turibdi. Ayni paytda, so`roq gap harakatni bajarishga da`vat etish, muayyan ish-harakatni amalga oshirishni taklif qilish kabi pragmatik mazmunga egaligini ko`rsatadi.

Biroq *Uch birday yigitga qanday qilib kuchim yetadi?* gapida da`vat qilingan harakatni bajara olmaslik, ya`ni inkor (“*Kuchim yetmaydi*”) mazmuni ifodalangan. Bu gap, aslida, ritorik so`roq gap shaklida berilgan bo`lsa ham, nimanidir aniqlash maqsadini emas, balki savolga savol tarzidagi javobni aks ettiradi. Adresat savolga to`g`ridan to`g`ri javob berishi mumkin edi, ammo yozuvchi nutqiy muloqotning milliy tabiatini jonli ifodalovchi o`zbekona so`z o`yini, qochirim, hozirjavoblik xususiyatlarini ko`rsatish maqsadida tilimizning sintaktik imkoniyatlaridan o`rinli foydalangan. Natijada so`roq gaplarga xos yana bir pragmatik vazifani ko`rsatib bergen.

Tilning sintaktik me'yorlariga ko'ra, yuqoridagi gap o`rnida darak, xabar mazmunini ifodalovchi *Uch birday yigitga kuchim yetmaydi, shuning uchun militsiyaga yetaklab borolmasdim* gapi voqelashishi lozim. Ona tilimizning sintaktik imkoniyatlari shu darajada keng va xilma-xilki, so`roq gap orqali darak, xabar, tasdiq, inkor, taklif, gumon, buyruq, istak kabi mazmuniy rang-baranglikni ifodalash mumkin.

Muloqotda so`roq gaplarning ishlatilishiga doir diskursiv material badiiy asar matnida ko`plab uchraydi. So`roq gaplar qo`llangan yana bir matnni ko`zdan kechiramiz:

”–Xo`p, baroringizni bersin! –direktor bir qadam qo`yib, yana muallimni to`xtatdi: – **E'tiborov, sovxoziimizga ishga o`tmaysizmi?** Ish yo`q emas, bor... Mana klub quryapmiz. Maoshiyam yaxshi! **Keyin o`zimizning odamimiz bo`lasiz, har holda, qarashardik-da, a?** Kechirasiz, menga shu... o`qituvchilar, redaksiya xodimlari yoqmaydi. Sal ig`vogarroq bo`ladi. To`g`ri, o`qituvchilar bizniyam o`qitgan, gazetayam ishimizga yordam beradi... **Xo`sh, taklifim yoqdimi?**

Ehson E'tiborov bo`shashib, qorga tikildi:

– Yo`q, o`rtoq Eshquvvatov!-dedi. –Men kasbimni yaxshi ko`raman! Maoshi kam bo`lsa ham, uni boshqa ishga alishmayman. **Tushundingizmi?**  
– Tushundik, tushundik...” [49, 62].

Direktor va o`qituvchi orasidagi muloqotdan ma'lum bo`ladiki, direktor E'tiborovga (o`qituvchiga) yangi ish o`rnini taklif etadi. Muloqotda bu taklif *E'tiborov, sovxoziimizga ishga o`tmaysizmi?* so`roq gapi orqali ifodalangan. Mazmunan taklifni ifodalayotgan so`roq gap darak gapga teng vazifani bajargan: *E'tiborov, sovxoziimizga ishga o`ting/ E'tiborov, sovxoziimizga ishga o`ta qoling* (takilf, istak, undash mazmuniga ega). Ta'kidlash kerakki, so`roq gaplar ayni pragmatik vazifasi tufayli nutqiy muloqotda eng faol qo`llanuvchi til birligidir.

*Keyin o`zimizning odamimiz bo`lasiz, har holda, qarashardik-da, a?* jumlesi kommunikativ maqsadni aniqlashtiradi. Chunki adresantning asosiy maqsadi ”o`qituvchi E'tiborovni o`z odamlari safiga qo`shish va muxoliflarni

kamaytirish”dir. Shuning uchun uni qiziqtirishga urinadi, bu uning gapiga qo`shilgan savol ohangidan anglashiladi (*har holda, qarashardik-da, a?*). So`roq gaplardagi yuklamalar (-mi; -a) adresant ko`zlagan maqsadni ifodalashga xizmat qiladi, ammo bu pragmatik vaziyatda kuchli vosita hisoblanmaydi. Chunki adresant tilning boshqa vositalaridan foydalanishi va gap kesimlarini shakllantiruvchi fe'llarning aniqlik (xabar) maylida qo`llanishiga erishishi mumkin. Bunda so`roq gaplar *E'tiborov, sovxoziimizga ishga o'ting* yoki *Keyin o`zimizning odamimiz bo`lasiz, har holda, qarashib turamiz* tarzidagi darak gaplar bilan ifodalangan bo`lar edi. Lekin norasmiy muloqot jarayonida adresant – direktorning taklifi rad etilmasligiga qat’iy ishonch yo`q. Taklifni qat’iy bildirgandan ko`ra, adresatni o`ylab ko`rish, qiziqtirishga undash va bordi-yu, taklif qabul qilinmasa, shunchaki istak bo`lib qolishi kommunikativ intensiyaga mos. Bunday vaziyatda adresantga so`roq yuklamalari, so`roq ohangi, so`roq gap shakli qo`l keladi. Shuning uchun muloqotda so`roq gaplar tanlangan va kommunikativ intensiyaga muvofiq qo`llangan.

Muloqot jarayonida adresantning maqsadi oydinlashib boradi. Bu uning *Kechirasiz, menga shu... o`qituvchilar, redaksiya xodimlari yoqmaydi. Salig`vogarroq bo`ladi. To`g`ri, o`qituvchilar bizniyam o`qitgan, gazetayam ishimizga yordam beradi...* degan gaplarida aniq ifodalangan. So`z navbati yana taklif masalasiga kelib taqalganda, *Xo`sh, taklifim yoqdimi?* gapi yuzaga chiqadi. Endi so`roq gap kommunikativ intensiya ochiq ifodalangan lisoniy birlikka aylanadi va bu vaziyatda ham tasdiq yoki inkor mazmunidagi javobni talab qiladi. Shunga ko`ra, adresat – E’tiborovning javobi ham qat’iy inkorni anglatadi: –*Yo`q, o`rtoq Eshquvvatov!* Adresatning *Men kasbimni yaxshi ko`raman! Maoshi kam bo`lsa ham, uni boshqa ishga alishmayman* degan gaplari taklif rad etilganligini va hatto, uning sabablarini ochib beradi. *Tushundingizmi?* so`roq gapi bunday vaziyatda kommunikativ maqsadni ochib beradi. Ayni paytda, ta’kidni, ya’ni ”bilib qo`ying, tushunib oling” mazmunini bildiradi.

Nutqiy muloqot so`roq gaplar kommunikativ maqsadni bevosita ifodalashini tasdiqlaydi. Sh.Xolmirzayevning ”Tabassum” hikoyasi qahramonlari orasidagi nutqiy muloqot buning dalili bo`la oladi:

”... Uni (Quyun qo`rboshini – izoh bizniki) to`g`ri qizilkaltakchilarning qurollangan otryadlari qarorgohiga olib bordilar. Orzixo`ja (komandir – izoh bizniki) Quyun bilan bemalol gaplashdi. Keyin uni Denovga olib jo`nadi. Sud bo`ladigan kun jar chaqirtirildi. Olomon atrofda devor bo`lib turar ekan, revkom, ChK va qishloq sho`rolari nomidan Orzixo`ja Quyun qo`rboshiga ikkita savol berdi.

– **Nima uchun kurashding?**

– Din uchun... - dedi Quyun bosmachi.

Orzixo`ja vakillari yonida saf tortib turgan domla, so`fi va masjid imomlariga qaradi.

– **Quyun qo`rboshi nima jazoga loyiq?**

– O`lim! O`lim! - deyishdi ular.

Orzixo`ja yana Quyundan so`radi:

– **Tag`in nima uchun kurashding?**

Quyun qo`rboshi:

– Xalq... uchun, - dedi.

– Xalq! - xiob qildi Orzixo`ja, – **Quyun qo`rboshi nima jazoga loyiq?**

– O`lim! O`lim!..

So`ng taloto`p bo`lib ketdi. ... Quyun qo`rboshi yigitlari bilan o`ldirganlari, so`yganlari, talaganlari, uyiga o`t qo`yganlarining qarindosh-urug`lari, bola-chaqalari duvillab, biri yig`lab, biri qarg`ab, biri Quyunga tuflab, biri tosh otib... Quyun qo`rboshi shu yerda otildi” [49, 113].

Diskursiv material jami to`rtta so`roq gap mavjudligidan dalolat beradi. Muloqotda ikkita so`roq gap –*Nima uchun kurashding?*, *Quyun qo`rboshi nima jazoga loyiq?* takror qo`llangan, ammo bu takror muloqotning alohida birligi hisoblanadi. Har bir so`roq gap muayyan pragmatik vazifaga xoslangan. Chunonchi, Orzixo`janing birinchi savoli *Nima uchun kurashding?* so`roq gapini

shakllantirgan bo`lib, Quyun qo`rboshining kurash maqsadini aniqlashga qaratilgan. Albatta, “shu oddiy, jo`n bir savol bilan istalgan odamdan kurash maqsadini so`rash mumkin” degan mulohaza tug`ilishi tabiiydir. Yuzaki qaraganda, bu so`roq gap oddiy tuyuladi. Biroq *Nima uchun kurashding?* jumlasida adresant ko`zlagan boshqa bir maqsad yashirin. Bizningcha, adresant – “qizil” komandirning savoli tubidagi “yuzaga chiqish mavridini kutib yotgan” asosiy maqsad:

- 1) Quyun qo`rboshining siyosiy kurash yo`li sho`ro hukumatiga qarshi isyon va xunrezlikdan iboratligini rasman tasdiqlatish;
- 2) bolsheviklar tuzumi qoralagan “xalq dushmani”ni aynan xalq oldida so`roq qilish;
- 3) uning sho`ro hukumati oldidagi jinoyatini tan oldirish kabi ma’no qatlamlaridan iboratdir. *Nima uchun kurashding?* savoli Orzixo`ja (adresant) tomonidan takroran *Tag`in nima uchun kurashding?* tarzida berilganda ham kommunikativ maqsad belgilaydigan pragmatik ma’no qatlamlari o`z kuchini saqlab qoladi.

Adresatning javobi olingach, savol yo`nalishi ham, adresat ham o`zgaradi: *Quyun qo`rboshi nima jazoga loyiq?*. Ushbu so`roq gap ikki vaziyatda yuzaga chiqadi. Birinchi vaziyat talabi bilan adresant domla, so`fi va masjid imomlariga yuzlanadi va ular savolga javob beruvchi adresatga aylanadi. Diskursdan ma’lumki, *O`lim! O`lim!-deyishdi ular*. Ikkinci nutqiy vaziyatda *Quyun qo`rboshi nima jazoga loyiq?* so`roq gapi xalq ommasiga qaratiladi. Demak, bu o`rinda adresat xalq ommasidir. Chunki bu galgi savolga xalq javob beradi: *O`lim! O`lim!..* Ma’lum bo`ladiki, so`roq gaplar muloqot birligi sifatida kommunikativ maqsad qamrovi, ijtimoiy ta’sir doirasi bilan uzviy aloqador. Shuning uchun bu gaplar muloqot tizimini belgilashga qodir. Ayniqsa, bir shaxs yoki ijtimoiy qatlam vakillari yoxud bir butun xalq ommasi adresat bo`lgan yuqoridagi muloqot ko`rinishida kuzatilganidek, so`roq gaplar muloqot ishtirokchilari miqdorini belgilash xususiyatiga ega. So`roq gaplarning eng asosiy pragmatik xususiyati shundan iboratki, ular muloqotning samarali kechishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Demak, so`roq gaplar muloqotda so`zlovchilarning kommunikativ maqsadiga mos shakl-ko`rinishda gavdalanadi va pragmatik vazifasiga ko`ra muloqotni shakllantiruvchi eng faol til birligi sanaladi.

### **Bob bo`yicha xulosalar**

So`roq gaplar nutqiy muloqotda pragmatik vaziyat talabiga ko`ra voqelashadi va kommunikantlarning madaniy saviyasi, xarakteri, his-tuyg`ulari, emotsional bahosi, yosh xususiyatlari, voqelikka munosabatini aks ettiradi.

So`roq gaplar nutqiy muloqotda faol qo`llanadi. Muloqot va diskursga oid materiallar tahlilidan ma'lumki, so`roq gaplar taklif, ishora, istak, buyruq, tasdiq, inkor, shart, undash, manzirat, takalluf, mulozamat, xushomad, taxmin, sinash, ishonchszizlik, shubha-gumon, ikkilanish, qo`rquv, hayajon kabi pragmatik mazmunni ifodalaydi.

Demak, so`roq gap tilning grammatik qonuniyati belgilaydigan noma'lum axborotni aniqlash, yangi ma'lumot olish vazifasidan tashqari til egalarining nutqiy faoliyati, kommunikativ maqsad va ehtiyojlari natijasida paydo bo`ladigan muloqot shakllarida taklif, ishora, istak, buyruq, tasdiq, inkor, shart, takalluf, mulozamat, taxmin, gumon, qo`rquv, hayajonni ifodalash kabi pragmatik vazifa bajaradi.

So`roq gapning turli pragmatik mazmun va vazifa kasb etishiga pragmatik vaziyat va kommunikativ intensiya bevosita ta'sir qiladi. Pragmatik vaziyat va kommunikativ intensiya so`roq gapning mazmun mundarijasini kengaytirib boradi. Darak gapga nisbatan so`roq gapning pragmatik imkoniyatlari kengligi uchun pragmatik vaziyat axborotni ifodalashda tagma'noli so`roq gapga "ustunlik" beradi.

Nutqiy muloqotda so`roq gap aks ettirgan lisoniy axborotdan tashqari kuzatiladigan pragmatik xususiyatlar – milliy-madaniy kompetensiya, so`zlovchining voqelikka umumiyl munosabati va shaxsiy emotsional bahosi uning pragmatik maydon birligi sifatida pragmatik vazifaga xoslanganligini tasdiqlaydi.

## UMUMIY XULOSA

Til jamiyatda muhim aloqa vositasidir. Tilning amaliy faoliyati inson nutqiy faoliyatida alohidalik sifatida yuzaga chiqadi. So`zlovchining nutqida lisoniy bilim zahirasidan foydalanish qobiliyati, tafakkuri, milliy madaniyati, milliy qadriyatlari va ruhiy olami aks etadi. Tilning amaliy faoliyatini o`rganish zaruriyati XXI asrda tilning jamiyat va shaxs hayotidagi o`rni, ahamiyati masalasiga yangicha yondashgan pragmatik lingvistikani vujudga keltirdi.

Pragmatik lingvistika fanning mustaqil tarmog`i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o`zida mujassamlashtirgan nutqiy muloqot, muloqot sistemasi va birlklari, nutqiy vaziyat, muloqot ishtirokchilariga xos xatti-harakat, so`zlovchi munosabati va kommunikativ maqsad bilan aloqador masalalarni o`rganadi.

Gap kishilar orasida axborot uzatish uchun ishlataladigan asosiy til birligidir. Gap so`zlovchi uchun fikr ifodalash va axborot uzatish, tinglovchi uchun axborot qabul qilish vositasi sifatida kommunikativ vazifa bajaradi. O`zbek substansial sintaksi xulosalariga ko`ra, nutqda cheksiz va xilma-xil ko`rinishlarda voqelanuvchi muayyan gaplar til sathi va til egalari ongida tayyor turadigan gapning eng kichik qolipi – [WPm]=SGning hosilalaridir.

Nutqda gap ko`rinishlarini shakllantiruvchi va mazmuniy xususiyatlarini ta'minlovchi nosintaktik hodisalar lisoniy sintaktik qurilishga ta'sir o`tkazmaydi. Kommunikatsiya jarayonida xabar, tasdiq, inkor, buyruq, his-hayajon ifodalaydigan nutqiy gaplar, shu jumladan, so`roq gaplarning lisoniy sintaktik qurilishi [WPm]=SG qolipi va uning olti variantida umumlashgan bo`ladi.

Gapning ifoda maqsadi nosintaktik hodisa sifatida nutqda gap turlarini belgilash, xususan, so`roq gaplarni hosil qilishda ahamiyat kasb etadi. Shu hodisa sabab o`zbek tilida darak, so`roq va buyruq gaplar ajratiladi. So`roq gap so`zlovchiga noma'lum narsa, hodisa, predmet, shaxs (va h-zo) haqida ma'lumot olish ehtiyoji tufayli vujudga keladi va aksariyat dialogik nutqda, nutqiy muloqotda uchraydi.

So`roq gaplar so`roq olmoshlari, so`roq yuklamalari va ohang yordamida shakllanadi. Shakllantiruvchilar lisoniy tabiatiga ko`ra, morfologik va fonetik

vositalardir. So`roq gaplar kutilayotgan javobga munosabatiga ko`ra, uch turga bo`linadi: 1) sof so`roq gap; 2) ritorik so`roq gap; 3) so`roq-buyruq gap. Nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va mazkur gapni shakllantiruvchi vositalar so`roq gap ohangini belgilaydi. So`roq gap axborot olish, uning noma'lum qirralarini aniqlashtirishga xizmat qiluvchi sintaktik birlik sanaladi.

So`roq gaplar nutqiy muloqotda faol qo`llanadi. Muloqot va diskursga oid materiallar tahlilidan ayonki, so`roq gaplar taklif, ishora, istak, buyruq, tasdiq, inkor, shart, undash, manzirat, takalluf, mulozamat, xushomad, taxmin, sinash, ishonchsizlik, shubha-gumon, ikkilanish, qo`rquv, hayajon kabi pragmatik mazmunni ifodalaydi. So`roq gap grammatik qonuniyat belgilaydigan noma'lum axborotni aniqlash, yangi ma'lumot olish vazifasidan tashqari nutqiy faoliyatda til egalarining kommunikativ maqsadi va ehtiyojlari aks etgan muloqot birligi sifatida pragmatik vazifa bajaradi.

So`roq gapning turli pragmatik mazmun kasb etishiga pragmatik vaziyat va kommunikativ intensiya bevosita ta'sir qiladi hamda uning mazmun mundarijasini kengaytiradi. So`roq gapning pragmatik imkoniyatlari darak gapga nisbatan keng. Shuning uchun pragmatik vaziyat axborotni ifodalashda tagma'noli so`roq gapga "ustunlik" beradi. Nutqiy muloqotda so`roq gap aks ettirgan lisoniy axborotdan tashqari kuzatiladigan pragmatik xususiyatlar – milliy-madaniy kompetensiya, so`zlovchining voqelikka umumiyl munosabati va shaxsiy emotsiyonal bahosi uning pragmatik maydon birligi sifatida pragmatik vazifaga xoslanganligini tasdiqlaydi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

### **I. Ijtimoiy-metodologik adabiyotlar:**

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. –Т.: Ўзбекистон, 1999. – 48 б.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. –248 б.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. –176 б.

### **II. Ilmiy risola, darslik va o`quv qo`llanmalari:**

4. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Т.: Фан, 1987. – 88 б.
5. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. –Т.: Фан, 1988. - 208 б.
6. Zamonaviy o`zbek tili. Sintaksis. II jild (Darslik. Mas`ul muharrirlar: R.Sayfullayeva, M.Qurbanova). –Т.: Mumtoz so`z, 2013. –312 b.
7. Махмудов Н. Маърифат манзиллари. –Т.: Маънавият, 1999.–64 б.
8. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.
9. Мўминов С. Сўзлашув одоби. –Фаргона: Фаргона, 1997. – 104 б.
10. Неъматов X., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Т.: Ўқитувчи, 1993. - 32 б.
11. Неъматов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
12. Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. –Samarqand, 2013. –104 b.
13. Рахимов С. Типология текстообразующих категорий: Семантика. Прагматика. Функция. – Андижан, 1990.– 239 с.
14. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbanova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –T.:Fan va texnologiya, 2009. – 414 b.
15. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. –39 б.

16. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 286 б.
17. Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (содда гап синтаксиси учун материаллар). –Т.: Ўз МУ босмахонаси, 2002. – 117 б.
18. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Т.: Фан, 1977. – 112 б.
19. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1987.-256 б.
20. Ҳусанов Б., Ғуломов В. Муомала маданияти. –Т., 2007. –Б.9-10.

### **III. Ымій мақолалар:**

21. Боймирзаева С. Модаллик умумлисоний категория сифатида //Тил тараққиётининг деривацион қонуниятлари. –Самарқанд: СамДЧТИ, 2009. – Б.192.
22. Бушуй Т.А. Лексическая прагматика как общелингвистический объект // Хорижий тил таълим мининг когнитив-прагматик тамойиллари. – Самарканд: СамДЧТИ, 2007. –Б.18-20.
23. Бегматов М.Б. Лисоний мулоқот ва гапнинг вербаллашуви// «Тил ва ижтимоий-маданий мулоқотлар» (1-китоб).– Самарқанд: СамДЧТИ, 2013. –Б.79.
24. Золотова Г.А. Говорящее лицо и структура текста // Язык – система. Язык – текст. Язык – способность. –Москва: ИРЯ РАН, 1995. – С.117-123.
25. Йўлдошев Б. Ўзбек тилида матн компонентларининг семантик ва прагматик муносабатлари ҳақида // Хорижий тил таълим мининг когнитив-прагматик тамойиллари. – Самарқанд: 2007. –Б.11-12.
26. Маҳмудов Н. Ўзбек тилишенослигининг тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2001.№4.–Б.3-9.
27. Маҳмудов Н. Мустақил давлатнинг муқаддас тимсоли // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2009.№5.–Б.3-9.
28. Мухаммедова Д. Микроматн кўринишида кесимларнинг teng алоқага киришуви // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2004.№6. –Б.90-91.

29. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг жинс жиҳатидан хосланиши // Ўзбек тили ва адабиёти.–Т., 1999. №5. –Б.64-66.
30. Мўминов С., Расулов Қ. Комуникантларнинг ижтимоий роли ва нутқий мулоқот ҳақида//Услубшунослиқ ва фразеологиянинг долзарб муаммолари. –Самарқанд: СамДУ, 2007. –Б.70-72.
31. Неъматов Ҳ. Ўзбек тилшунослигига формал, структурал ва субстанциал йўналишлар хусусида // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2009.№4. – Б.35-41.
32. Нурмонов А., Ҳакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2001. №4. –Б.54-58.
33. Рахимов С. Дейктические форма вежливости в прагмалингвистическом аспекте // Прагматические и семантические аспекты синтаксиса. – Калинин: Изд-во КГУ, 1985. –С. 103-110.
34. Сафаров Ш., Шишкина Т.А. Коммуникативно-прагматические функции восклицания в диалоге // Мышление и коммуникация. – М.: И-т языкоznания, 1990. – С.126-132.
35. Турниёзов Н., Турниёзова К. Фрейм ва унинг прагматик мавқеи хусусида баъзи мулоҳазалар // Хорижий тил таълимининг когнитив-прагматик тамойиллари. –Самарқанд, 2007. –Б.6-8.
36. Қиличев Э., Раҳимов А., Қўшшаева Н. Нутқда ғайриахлоқий сўзларнинг ҳам ўз ўрни бор//Таълим жараёнида нутқ маданиятини шакллантириш масалалари (ЎТДА 5-ийини тўплами). –Т., 1999.–Б.226.
37. Ҳакимов М. Илмий матнда хусусий муносабат масалаларига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 1993. №1. –Б.34.
38. Ҳожиев А. Модал ёки субъектив баҳо формалари ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 1978. №1. –Б.3-6.

### **III. Lug‘atlar:**

39. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли лугати. –Т.: Ўқитувчи, 1985. –110 б.

#### **IV. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari:**

40. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши: Филол. фанлари номзоди... диссер... автореф. –Т., 1994. –22 б.
41. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мuloқот шакллари: Филол. фанлари номзоди... диссер... автореф. –Самарқанд, 1993.-27 б.
42. Мадрахимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни таснифлаш асослари: Номзодл. диссер... автореф. –Т., 1994. –25 б.
43. Мўминов С. Ўзбек мuloқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари доктори... диссер... автореф. –Т., 2000. –44 б.
44. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанлари доктори... диссер... автореф. –Т., 2001. –39 б.
45. Қурбонова М. Ўзбек тилшунослигига формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: Филол. фанлари доктори... диссер... автореф. –Т., 2001. –51 б.

#### **V. Badiiy adabiyotlar:**

46. Мурод, Тоғай. От кишинаган оқшом. Қиссалар. –Т.: Шарқ нашриёт-матбаа концернининг Бosh таҳририяти, 1994. – 464 б.
47. Мухтор, Омон. Эгилган бош. Роман. –Т.: Ёш гвардия, 1989. –256 б.
48. Xolmirzayev Shukur. O'n sakkizga kirmagan kim bor. Qissa va hikoyalar. –Т.: Yangi asr avlodi, 2015.-388 b.
49. Холмирзаев Шукур. Бодом қишда гуллади. Ҳикоялар. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.-320 б.
50. Қахҳор, Абдулла. Асарлар: 5 жилдлик. 1-жилд. Сароб. Роман. Ҳикоялар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 336 б.

#### **VI. Internet saytlari:**

51. [www.ziyonet.net- tilshunoslik](http://www.ziyonet.net-tilshunoslik)

## MUNDARIJA

Kirish. Ishning umumiyl tavsifi.....	2
I bob. Gap – sintaksisning asosiy birligi.....	6
1.1. Gapning lison-nutq farqlanishidagi tahlili.....	9
1.2. So`roq gaplarning grammatic xususiyatlari.....	16
II bob. Tilning amaliy faoliyatiga pragmatik yondashuv.....	24
2.1. Pragmatik lingvistikaning shakllanishi.....	24
2.2. Lingvistik pragmatika va uning tadqiq manbayi.....	26
2.3. Muloqot va madaniy kompetensiya.....	30
III bob. So`roq gaplar muloqot birligi sifatida.....	36
3.1. So`roq gaplarning pragmatik vaziyat bilan bog`liq xususiyatlari.....	36
3.2. So`roq gaplar va kommunikativ intensiya.....	46
Umumiyl xulosa.....	54
Foydalanilgan adabiyotlar.....	56